

BOTIROVA SHAXLO ISAMIDDINOVNA

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI



**Toshkent
2024**

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
выдач _____

--	--

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

BOTIROVA SHAXLO ISAMIDDINOVNA

Tarjima nazariyasi va amaliyoti

(Darslik)

Toshkent
«Renesains sari»
2024

UO'K 81'25
KBK 81-7
B-81

BOTIROVA Sh. I. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Darslik. –
T.: "Renesans sari", 2024. 110 b.

Taqrizchilar:

Feruza Ikramxanova – *filologiya fanlari doktori, professor.*
Dildora Isroilova – *filologiya fanlari doktori, professor.*

Ushbu darslikda tarjima nazariyasi va amaliyoti haqida umumiy tushunchalar, tarjima tarixi, tarjima turlari, xususan, yozma va og'zaki turlari, tarjima jarayonida duch keladigan qiyinchiliklar, badiiy tarjima va uning xususiyatlari, ketma ket tarjima, tarjima jarayonida ma'lumotni to'liq qayta tiklash, matnning kengayish holati, tarjima jarayonida xotirani rivojlantirish, sportga oid so'zlar tarjimasi, geografik nomlar va toponimlar tarjimasi, madaniyatga oid so'zlar tarjimasi va uning xususiyatlari va o'zbek tilida qo'llaniladigan qisqartmalar tarjimasi haqidagi nazariy qarashlar hamda ularning amaliyotga tatbiq qilishning pedagogik va metodik imkoniyatlari o'z aksini topgan. Darslik kredit modul asosida ta'lim oluvchi maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) yo'nalishi bakalavrlari, tadqiqotchilar va mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

UO'K 81'25
KBK 81-7

O'zbekiston Respublikasining Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-sonli buyrug'iga asosan darslik sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9397-3-0

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

MUNDARIJA

1. Tarjima nazariysi va amaliyoti faniga kirish	4
2. Tarjima tarixi	14
3. Fanning predmeti, uslub va metodlari	26
4. Tarjima turlari	38
5. Yozma tarjima turlari.....	44
6. Og'zaki tarjima turlari.....	51
7. Tarjima sohasidagi yondashuvlar	53
8. Tarjima jarayonida leksik muammolar va ularning yechimi	60
9. Tarjima jarayoni.....	64
10. Tarjima jarayonida lug'atlar bilan ishlash	74
11. Badiiy tarjima va uning xususiyatlari	76
12. Ketma ket tarjima va uning xususiyatlari	83
13. Sinxron tarjima qilish prinsiplari	90
14. Tarjimada terminlar ahamiyati	96
15. Sportga oid so'zlar tarjimasi	100
GLOSSARIY	106

1-mavzu: Tarjima nazariyasi va amaliyoti faniga kirish

Reja:

1. Tarjimada ilk nazariy qarashlar
2. Xalqaro tarjimonlar uyushmasining yuzaga kelishi
3. Tarjimada metodlarning qo'llanilishi

Tarjima haqida ilk nazariy fikrlar dastlab qadim Rimda yuzaga kelgan edi. Yunon va lotin tillarini mukammal o'zlashtirgan olgan Aristotel, Sitseron va Goratsiy tarjima jarayonida so'z ketidan quvish yaramaydi, ularning ma'no ifodalarini avval tarozida o'lchab, keyin tarjima qilish ma'qul, degan fikrlarni olg'a surishgan. Undan so'ng Italiyada Bartolomeo va Manetti, Fransiyada Dyu Belle va Malerb, Angliyada Bekon va Drayden, Germaniyada Gyote va Gumboldt, Rossiyada Lomonosov va Sumarokov tarjima borasida o'z nazariy tushunchalarini olg'a surib borgan.

XX asrga qadar "tarjima" so'zi muayyan ma'no kasb etib, faqat tarixiy, falsafiy va adabiy asarlar o'girmasiga nisbatan qo'llanilib kelingan, og'zaki tarjimonga nisbatan esa turkiyda "tilmoch", slavyanlarda "tolmach", nemis tilida "dolmetschen", ingliz va fransuz tillarida "interpret" atamaları ishlatilgan. Tarjima nazariyasi xususida aytilgan fikrlar ham shu yo'sinda umumiy ma'noga ega bo'lgan. Masalan, taniqli fransuz tilshunosi Jorj Munenning e'tirof etishicha, F. de Sossyur (1857-1918) va O. Garri Yespersen (1860-1943) tadqiqotlarida tarjima nazariyasi haqida fikrlar yo'q, hatto Sh. Balli (1865-1947) va J. Vandriyes (1875-1960) asarlarida ham bu xususida mulohaza bildirilmaydi.

Tarjima nazariyasiga bag'ishlangan ilk tadqiqotlar o'tgan asrning yigirmanchi yillarida yuzaga kela boshladi. Bu davrda nashr qilingan F. R. Amos, J. P. Postget, O. M. Finkel, M. P. Alekseev kitoblarida, Sanjar Siddiqning "Adabiy tarjima san'ati" (1936 y.) risolasida ham tarjima nazariyasini fan

sifatida e'tirof qiluvchi aniq fikrlar bildirilmagan edi. Tarjima nazariyasini fan sifatida ta'riflovchi va bunga da'vat etuvchi tadqiqotlar asrning elliginchi yillariga kelib e'lon qilina boshlandi. Aniqrog'i, 1952 yil. "Inostranni'e yazi'ki v shkole" jurnalida taniqli tarjimon I. Kashkinning "Ishonchsiz tamoyil va noaniq xulosalar" va taniqli tilshunos A. A. Reformatskiyning "Tarjimaning lingvistik masalalari" nomli maqolalarining chop qilinishi bu sohada bahs-munozaralarning boshlanishiga sabab bo'ldi. Masalan, professor A. A. Reformatskiy o'z maqolasida "tarjima amaliyoti barcha fanlar uchun xizmat qilsa-da, tarjima nazariyasi mustaqil fan bo'la olmaydi. U tilshunoslikning bir bo'limigina bo'lishi mumkin", degan da'vo bilan chiqadi. Tez orada olimning bu fikriga qarshi tarjimashunos A. V. Fedorov: "Tarjima nazariyasi fan sifatida e'tirof qilinishi zarur. Faqat u qurilishi jihatidan tilshunoslik yo'nalishiga vobasta bo'lmog'i kerak" degan g'oyani ilgari suradi. Bu yillarda O'zbekistonda ham tarjima nazariyasi xususida dadil fikrlar aytila boshlandi. Asqad Muxtor, Jumaniyoz Sharipov, G'aybulla Salomov, Ninel Vladimirovalarning tarjima nazariyasidan bahs yurituvchi risola va maqolalari nashr qilindi.

1953 yili Xalqaro tarjimonlar uyushmasi – FIT (Federation Internationale des Traducteurs) ning tashkil qilinishi tarjimon va tarjimashunoslar faoliyatining yanada ravnaq topishida muhim rol o'ynadi. 1955 yildan uyushma organi "Babel" ("Bobil") jurnali nashr etila boshlandi. Bu yillarda turli mamlakat olimlarining tarjima nazariyasi muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlari birin-ketin bosilib chiqdi. Ular orasida fransuz Jorj Munenning "Go'zal, ammo bevafo", ingliz Teodor Savorining "Tarjima san'ati" kitoblari o'sha davrda muhim ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, kanadalik tilshunoslar J. P. Vinje va J. Darbelnening 1958 yilda nashr qilingan "Fransuz va ingliz tillarining qiyosiy stilistikasi. Tarjima tadorigida" monografiyasida tarjima nazariyasi qiyosiy tilshunoslik yo'sinida talqin qilinib, mualliflar uni sof tilshunoslik izmidagi

fandir, degan tezisni ilgari surdilar. Ular o'z fikrlarini taniqli tilshunos olim Sharl Balli ta'limotiga yaqinlashtirib, tarjima ham ikki tilga mansub sistemadir, u asliyat va tarjima tilining o'zaro yaqinlashuvi jarayonida yuzaga keladi. Bu jarayonda asliyat tili o'z holatini o'zgartirmaydi, tarjima tili esa mavjud sharoitga qarab o'zgaradi va asliyat tilining lisoniy holatlarini o'zida ifoda etishga majbur bo'ladi, degan to'xtamga keladilar.

O'tgan asrning oltmishinchi yillari boshida fransuz olimi E. Karining "Tarjima nazariyasi sari" va amerikalik tilshunos Yu. Naydaning "Tarjima nazariyasi xususida" nomli mazmunan bir-birini to'ldiruvchi tadqiqotlari bosilib chiqdi. E. Kari o'z kitobida tarjima nazariyasini mustaqil fan tarzida e'tirof etish bilan birga umumiy "tarjima nazariyasini yaratmoq payti keldi", degan fikrni bildirgan bo'lsa, Yu. Nayda tarjima amaliyoti va nazariyasining vobasta ilmiy tamoyillarini ishlab chiqmoq lozimligini uqtirish bilan, tarjima nazariyasiga "dinamik ekvivalent" (so'zlarning teng ma'noli muqobillari) tushunchasini olib kirdi.

Bu davrga kelib sobiq Ittifoqda ham tilshunos va adabiyotshunos olimlarning tarjima nazariyasi talqiniga bag'ishlangan tadqiqotlari e'lon qilindi. Masalan, A. V. Fedorov "Tarjima nazariyasiga kirish" kitobini 1958 yil kayta nashr ettirarkan, unga "lingvistik ocherk" tagsarlavhasini ilova qilgan edi. Ko'p o'tmay ushbu nashr mazmuni va mundariyasi atrofida qizg'in bahs-munozaralar boshlandi. Ittifoq olimlari o'rtasida tarjima nazariyasiga ikki tomonlama: tilshunoslik va adabiyotshunoslik ilmi nuqtai nazaridan talqin qilish muammosi yuzaga keldi. 1959 yildan ittifoq Yozuvchilar uyushmasi tashabbusi bilan "Tarjima mahorati" almanaxi va 1963 yildan tilshunoslik ilmining markazlaridan biri sanalgan Moskva Davlat chet tillar pedagogika instituti olimlari sa'y-harakati bilan "Tarjimon daftarlari" ilmiy to'plami nashr etila boshlandi. "Tarjima mahorati" almanaxida taniqli adabiyotshunoslarning tarjima - bu adabiy jarayon va badiiy ijod, tarjima nazariyasi esa adabiyotshunoslikka asoslangan fandir, deguvchi maqolalari

muntazam chop qilinib kelingan bo'lsa, "Tarjimon daftarlari" to'plamida ko'plab tilshunoslarning tarjima - bu matn bilan bog'liq lingvistik jarayon, tarjima nazariyasi ham lisoniy tahlilga asoslangan fandir, deya e'tirof etguvchi tadqiqotlari bosilib kelindi.

O'sha yillari O'zbekistonda ham tarjima nazariyasi fan sifatida e'tirof etila boshlandi. Prof. A. A. Reformatskiy va A. V. Fedorovning tarjima nazariyasi xususida bildirgan fikrlari yo'nalishida bahs yurituvchi o'zbek olimlari N. V. Vladimirova ("Некоторые вопросы художественного перевода с русского на узбекский язык", 1957), J. Sharipov ("Некоторые проблемы поэтического перевода", 1958), G'. Salomov ("Мақол ва идиомалар таржимаси", 1961) larning tadqiqotlari yuzaga keldi. 1961 yil professor G'aybullal Salomov asos solgan "Tarjima san'ati" ilmiy to'plamining birinchi kitobi bosilib chiqdi. Mualliflar o'sha davr talabidan kelib chiqqan holda o'z tadqiqotlarida tarjima nazariyasining ba'zi lingvistik va poetik xususiyatlarini yoritishga harakat qilgandilar.

Biroq, o'tgan asrning oltmishinchi yillaridan boshlab sobiq Ittifoq va xorijiy olimlar davrasida tarjima nazariyasi tilshunoslik tadorigidagi fandir, deguvchilar soni ortib, ular ta'limoti yetakchi o'ringa chiqib oldi. Masalan, 1964 yili rus tilshunoslari I. Revzin va V. Rozensveygning "Umumiy va mashina tarjimasi asoslari" nomli monografiyasi e'lon qilindi. Monografiyada olimlar tarjima nazariyasi tilshunoslik yo'nalishidagi fan bo'lishi lozim, deguvchi ta'limotni yanada chuqurlashtirib, tarjimani strukturaviy tilshunoslik qolipida talqin qilmoq va shu tamoyilda tahlil etmoq darkor, degan fikrni targ'ib qilishdi. Hatto ular A. V. Fedorov "Tarjima nazariyasiga kirish" kito bining 1958 yilgi nashri mazmuni va mundarijasiga tanqidiy yondashib, olimning tarjima nazariyasini yaratishda yakdil bir to'xtamga kelolmaganligini, tarjima nazariyasining sof lingvis-tik fan ekanligini isbotlab berolmaganini tanqid qildilar. Shu bilan birga ular "mashina tarjimasi" ning nazariy

muammolari xususida ham keng to'xtalib, bu borada ham o'zlarining lingvistik nazariyasini olg'a surishdi.

Tarjima va tarjimashunoslik ilmi o'tgan XX asrda keng taraqqiy etdi, umumfilologik fan tarzida e'tirof qilindi. Uzoq davometgan bahs-munozaralardan keyin tarjima nazariyasining lingvistik tamoyillari peshqadamlikni qo'lga olgan bo'lsa-da, XXI asr bo'sag'asida nazariya birmuncha tanazzulga yuz tutib, amaliyotdan ortda qola boshladi. Bu fikrni bevosita o'zbek tarjimashunosligi xususida ham aytish mumkin. Sababi, so'nggi o'n-o'n besh yil ichida tarjima nazariyasi muammolariga bag'ishlangan yirik ilmiy tadqiqotlar yaratilmadi hisob. Yosh olimlar tomonidan himoya qilinayotgan nomzodlik dissertatsiyalari jahon tarjimashunosligi ilmi andozalari darajasida emas. Bir so'z bilan aytganda, mustaqillik yillari "tarjima amaliyoti bir qadar jonlandi-yu, tarjimaning nazariy asoslari, yo'nalishlari, istiqbollarini o'rganish, tadqiq etish birmuncha susaydi" (X. Do'stmuhammad). Quvonarli tomoni shundaki, oliy o'quv yurtlarida tarjima nazariyasi va amaliyotini o'qitish birmuncha jonlandi. I. G'afurov, A. Abduazizov, Q. Musayev, O. Mo'minov, N. Qambarov, Sh. Sirojiddinov kabi taniqli tarjimon va tarjimashunos olimlarimizning sa'y-harakati tufayli tarjima nazariyasi va amaliyotiga oid darslik hamda o'quv qo'llanmalari chop etildi. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, "Jahon adabiyoti", "Sharq yulduzi", "Zvezda Vostoka", "O'zbek tili va adabiyoti", "Tafakkur", "Filologiya masalalari" jurnallarida tarjima nazariyasi va amaliyotiga oid maqolalar, bahs-munozaralar bosilmoqda. Vaholanki, o'tgan "XX asr - tarjima asri" (P. F. Kaye) tarzida tarixda muhrlangan bo'lsa, XXI asrda tarjima jahon xalqlari va sivilizatsiyasi o'rtasidagi "kommunikativ vosita" (P. M. Toper) sifatida yanada ham muhim ahamiyat kasb etishi turgan gap. Bu fikr FITning so'nggi yillarda London, Moskva, Melburn va Shanxay simpoziumlarida ham olimlar tarafidan takror-takror aytib o'tildi. Endilikda, "o'zbek adabiyoti asta-sekinlik bilan jahon adabiyoti jarayonlari bilan

tutashib borayotgan" (I. G'afurov) ekan, tarjima amaliyoti va uning nazariy jihatlariga ham jiddiy e'tibor qaratmog'imiz lozim bo'ladi.

Tarjima nazariyasi tarjimaning keng jonli amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan qarashlar, nuqtai nazarlar, kuzatishlar, rang-barang tajribalarni ilmiy-tanqidiy o'rganadi, tarjima qoidalari va tamoyillarini, ularning chegaralari, me'yorlarini bayon qiladi.

Tarjima ilmiy-nazariy o'rganish ob'yekti bo'lishi zarur. Unda tahlil va uyg'unlashtirish jarayoniga, matnda nimaga ahamiyat berish lozimligiga, qanday axborot zarurligi va maqsadga erishish uchun nimalarga e'tibor qilishga qaratilgan bo'lishi lozim. Tarjima murakkab jarayon bo'lib, tilshunoslik, psixologiya, madaniyat, adabiy jarayon va boshqa omillarni o'z ichiga oladi.

Tarjima nutqning bir turi sifatida tilshunoslik nuqtai nazaridan qarab o'g'iriladi, ya'ni tarjima jarayoni bu bir tilagi matnni ikkinchi bir tilga ag'darish - transformatsiya qilish demakdir. Mana shu har xil bajariladigan o'zaro ikki til o'rtasidagi ishlar, tilshunoslik nuqtai nazaridan tarjima jarayoni deb aytamiz.

Shunday qilib, "tarjima"ni o'ziga xos transformatsiyalarning bir turi deb qarash mumkin. Bundan kelib chiqadiki, tarjima nazariyasi predmeti bo'lib tillararo transformatsiyalarga, ya'ni tarjima jarayoniga bo'lgan ilmiy qarashlarning o'rganilishi yoritilishi sanalsa, uning ob'yekti bo'lib esa mavjud tarjimalar xizmat qiladi.

Tarjima qilinayotganda 2 ta matn bilan ish ko'riladi, shundan biri ikkinchisiga bog'liq bo'lmagan holda yaratilgan bo'lib, manba matn vasifasini bajaradi, ikkinchisi esa bir qancha amallar, tillararo transformatsiyalar orqali bir matn asosida yaratiladi. Birinchi matn orginal tekst deb atalsa, ikkinchisi tarjima teksti deb yuritiladi. Orginal matn yozilgan til manba til (source language) deb ataladi. Orginal tekst ag'darilayotgan til esa tarjima tili deb yurtiladi (target language).

Mamlakatimizda tarjima nazariyasi mustaqil filologik fan sifatida asosan XX asrning 50-yillaridan e'tiboran shakllana boshlagan bo'lsada, tarjima amaliyoti bir necha ming yillik tarixga ega. Bundan tarjimachilik ming yillar mobaynida nazariyasiz rivojlanib kelgan ekan-da, degan xulosa kelib chiqmaslik kerak. Arab, fors, hind, ozarbayjon, turk va rus tillaridan juda ko'p ilmiy, tarixiy, siyosiy, diniy, falsafiy, badiiy kitoblarni o'z tillariga o'girib kelgan tarjimonlarimiz bir necha asrlar mobaynida qabul qilingan va rioya etilgan ma'lum tarjimachilik aqidalariga, qoidalariga asoslanib ish ko'rganlar.

Tarjima turli xalqlar adabiyotlarining o'zaro aloqasi va birlariga bo'ladigan ta'sir jarayonini tezlashtiradi. Tarjimaviy asarlar tufayli jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand bo'ladilar. Tarjima tillarning kamoloti uchun zaruriy vosita sifatida ularning rivojlanish sur'atini jadallashtiradi, lug'at boyligini oshiradi va takomillashtiradi. Tarjima inson ma'naviy hayotini boyitadi, ona tilining imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi, uni serjilo qiladi. Tarjima tufayli kitobxon tafakkuri charxlanib, yangi g'oyalar va tushunchalar bilan boyiydi. Tarjima jamiyatda yangicha munosabatlar, qarashlar qaror topishiga xizmat qiladi. Tarjima turli xalqlar madaniyati va ma'naviyatiga ijobiy ta'sir etadi. Tarjima madaniyatlararo muloqotni tashkil etish va takomillashtirish omilidir.

O'zbek kitobxonlari ingliz zabon mualliflar asarlari bilan XX asrning 30 - yillaridan boshlab yaqindan tanisha boshlaganlar. Ushbu asarlar o'zbek tiliga asosan rus tili orqali tarjima qilib kelindi va afsus bilan qayd etish lozimki, ingliz tilidan bevosita tarjima qila oladigan haqiqiy mutaxassislarning yo'qligi sababli ingliz tilida ijod qilgan mualliflar asarlari o'zbek tiliga hamon rus tili orqali o'girilmoqda. Bu esa tarjima jarayonida muqarrar yo'l qo'yiladigan nuqsonlar miqdorining ikki baravar oshib ketishiga olib kelmoqda.

Lekin shuni quvonch bilan aytishimiz joizki, asrimizning boshlaridan boshlab mamlakatimizda bilvosita tarjimadan

bevosita tarjimaga o'tish harakatlari ko'zga tashlanmoqda. Bugungi kunda tarjimonlarimiz xorijiy tildagi matnlarni to'g'ridan-to'g'ri ona tilimizga va ona tilimizdan xorijiy tilga tarjima qilmoqdalar. Alisher Otaboev (Jeyms Joysning "Evelin" hikoyasi; Somerset Moemning hikoyalari), Shahnoza Akbarova (Jon Lutsning "Erto'ladagi xona" hikoyasi), Nurbek Abdullaev (Jek Londonning Mak-Daffining bahosi hikoyasi); Dinara Sultonovanning ingliz shoirlari she'rlari tarjimasi; Hulkar A'zam ("Oshin" asari), ("Esmeralda" ko'p seriyali kinolentasi tarjimonlari). Bu esa o'zbek kitobxonlarining jahon adabiyoti durdonalari namunalari bilan batafsilroq tanishishlari uchun imkoniyat yaratib berish baravarida yaqin kelajakda tahlil va tadqiq uchun ham shubhasiz zaruriy material hozirlay oladi deb umid qilishimiz mumkin.

Tarjimaning umumiy nazariyasi tarjima universallari bilan ish ko'radi, bu sohada hamma boshqa nazariyalarni o'rganish uchun asos bo'ladi. U tarjima nima va u qanday bo'lishi haqida ma'lumot beradi.

Tarjima fan sifatida o'zining tahlil metodlariga ega. Bugungi kunda L. S. Barxudarov fikriga ko'ra tarjimashunoslik o'zining quyidagi tahlil metodlariga ega.

1. Qiyosiy metod (chunki istalgan holatda 2 tilni qiyoslash asosida tarjima amalga oshiriladi).

2. Komponentlarga ajratish metodi (qismlarga ajratib tahlil qilish metodi).

3. Transformatsion metod (tilda ilk til vositalari, azaliy tiplarni aniqlab, ulardan kelib chiqqan til vositalarini o'rganib, tahlil qiluvchi metod (leksik, Grammatik transformatsiyalar)).

4. Statistik metod.

5. Oppozitsiya metodi (qarama - qarshi qo'yib tahlil qilish metodi).

Ushbu metodlardan tashqari tarjimini amalga oshirish usullari ham mavjud, bular tarjimashunoslikning o'ziga xos ish ko'rish usullaridir.

1. Ma'lumotlarni qisqa va lo'nda qilib yozib olish va ularga tayanib o'g'irish.

2. Tarjimada asl nusxa materialini ma'nodor bo'laklarga ajratib o'g'irish.

3. Matnni leksik, grammatik transformatsiyalar orqali o'g'irish.

a) og'zaki transformatsiyalar orqali o'g'irish;

b) yozma transformatsiyalar orqali o'g'irish;

c) og'zaki-yozma transformatsiyalar orqali o'g'irish;

d) yozma-og'zaki transformatsiyalar orqali o'g'irish.

4. Antonimik vositalar orqali o'g'irish.

5. Sinonimik vositalar orqali o'g'irish.

6. Tarjimaviy transkripsiya orqali o'g'irish.

7. Tarjimaviy transliteratsiya orqali o'g'irish.

8. Kalka orqali o'g'irish.

9. Kompensatsiya orqali o'g'irish.

10. Umumlashtirish orqali o'g'irish.

11. Konkretlashtirish orqali o'g'irish.

12. Nutqni ixchamlashtirish orqali o'g'irish

Fransuz shoiri va tarjimoni Etyena Hole (1509-1546) tarjimon quyidagi besh talab yoki tamoyillariga amal qilish kerak degan:

Tarjima matni mazmunini, muallif maqsad-muddaosini mukammal bilishi kerak;

Asliyat matni va tarjima matni tillarini mukammal darajada bilishi kerak;

So'zma-so'z tarjimadan qochish;

Tarjimada nutqning ko'p qo'llaniladigan formalarini qo'llash;

Tarjimada so'zlarni to'g'ri tanlash, asliyat matni mazmuniga mos matn yaratish.

Ingliz olimi A. Taytler o'zining "Tarjima tamoyillari" (1790y.) nomli kitobida quyidagi talablarni qo'yadi:

Tarjima asliyatdagi g'oyani to'la berishi lozim;

Tarjima bayon uslubi va yo'li asliyatga mos bolishi kerak;
Tarjima asliyat kabi oson o'qilishi kerak.

Tarjima tarixi turli xalqlar adabiyotlarining bir - biridan ajralib, cheklanib qolganini emas, balki, aksincha, hamma vaqt juda qadim zamonlardan tortib hozirgi kungacha, bir-biriga intilib, yaqinlab borgani, bir-biridan ta'sirlanib taraqqiy etganligini isbotlamoqda.

Ilk tarjima namunalari odamzodning yodida qolmagan. Lekin ular odam, non, ota, ona, uka, singil, kun, oy, osmon, yer, yo'l, ot kabi so'zlardan va ularning boshqa tillarga tarjimalaridan iborat bo'lganligini tasavvur qilish qiyin emas. Bu so'zlardan tarjimalar folklor asarlariga o'tganligini ham bir oz fantaziya ishlatib ko'z o'ngimizga keltirishimiz mumkin.

O'quv - metodik topshiriqlar:

1. Tarjima nazariyasi va predmeti haqida qisqacha ma'lumot bering.

2. Tarjima va tarjimashunoslik ilmini o'tgan asrlardagi o'rni nimada?

3. Tillararo transformatsiyalar orqali matnlarni tarjima qilish nima?

4. Tarjima fan sifatida o'zining tahlil metodlariga ega bo'lgan olimlar haqida fikrlaringizni bayon eting.

5. Xalqaro tarjimonlar uyushmasini tashkil etilishining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

2-mavzu: Tarjima tarixi.

Reja:

1. Tarjimaning ilk paydo bo'lishi
2. Tarjima qadimgi manbalarda
3. Badiiy tarjima va uning xususiyatlari

Tarjima — bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishi. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi. Asl nusxani aks ettirish tarziga ko'ra tafsir, tabdil, sharh kabi ko'rinishlarga ham ega bo'lishi mumkin. Tarjima qadimgi davrlarda, turli qabilaga mansub kishilar orasidagi o'zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Tilmochlik deb ataladigan bu og'zaki turi hozirda ham saqlanib qolgan.

Zamonlar osha tarjimaga bo'lgan talablar yangilana boradi. Ammo uning ijodiy xarakteri, qayta yaratish san'ati ekanligi o'zgarmaydi. Tarjimaning ko'lami va taraqqiyoti har bir xalqning ma'rifiy darajasiga bog'liq va, o'z navbatida, u millatning ijtimoiy tafakkuriga samarali ta'sir etadi. "Tarjima" termini bir tildan ikkinchi tilga o'girish jarayonini, shuningdek, tayyor tarjima asarini anglatadi.

Badiiy tarjimaning asosiy xususiyati tilning badiiy vazifasidan kelib chiqadi. Til badiiy asarda estetik hodisa, san'at faktiga aylanadi. Adabiy asar tili — alohida "badiiy voqelik" unsuridir. Tarjimada ana shu obrazli ifodaviy tildagi badiiy ma'noni boshqa tilning obrazli ifodaviy zaminiga o'tkazish, obrazni obraz bilan qayta ifodalash jarayoni yuz beradi. Shuning uchun tarjimon asardagi voqealarning badiiy tafakkur jarayonini yangidan idrok etadi. Zamonaviy tarjima talablariga asosan tarjimon asliyatning san'at asari sifatida shakl va mazmun birligini qayta yaratishi, milliy va individual xususiyatlarini saqlashi lozim. Tarjimon ona tilining rivojlanish

darajasi, Tarjimachilik an'analari, tajribalariga suyanadi, turli xil tafovutlarning mavjudligini hisobga oladi. Tarjimonning ijodiy qobiliyati va bilimi uning imkoniyatlarini kengaytiradi. Tarjima jarayonida tarjimon hammavaqt o'z ona tilida fikrlaydi, ona tili unga tahlil quroli, sinov mezon bo'lib xizmat qiladi. Mac, Nizomiyning "Xisrav va Shirin" dostonini o'g'irgan Qutb ("...Nizomiy bolidan holva pishurdim") tarjima nusxa ko'chirish kabi bir ish bo'lmay, ijodiy jarayon ekanini, tarjimon esa boldan holva pishiruvchi mohir yozuvchi bo'lishi kerakligini aytadi. Turli davrlarda muayyan hududdagi adabiy muhit, ayniqsa, maxsus tarjima maktablarining yuzaga kelganligining o'ziyoq uning shakllangan tamoyillari, an'analari bo'lganligini ko'rsatadi.

Hozigi davrda har bir taraqqiy etgan xalq jahondagi yuzlab xalqlar tilidan o'z ona tiliga ilmfan va madaniyatning o'nlab sohalariga oid materiallarni (lirik she'rlar, xabarlar, texnologiya adabiyoti va boshqalar) tarjima qiladi.

Tarjima nusxa ko'chirish emas; tarjimonning estetik ehtiyoji uning ixtiyoridan tashqari, tarjimada iz qoldiradi. Yozuvchi hayot voqealaridan olgan mushohadalarini tilda badiiy ifodalasa, tarjimon asl matnini yangi til vositasida qayta gavdalantiradi. Buning uchun u asarda tilga olingan voqelikning muallif darajasida puxta bilishi kerak. Har bir xalq adabiyotining rivojlanishida tarjimachilikning ta'siri katta bo'ladi, zero tarjima tarixi adabiyot tarixi bilan tengdosh. O'zbek adabiyotida ham tarjimachilik qadimdan rivojlangan. Mahmud Koshg'ariy, Rabg'uziy, Qutb, Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy va boshqa ijodida tarjima katta o'rin egallaydi.

XX asr o'zbek yozuvchilaridan Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shayxzoda, Mirzakalon Ismoiliiy, Askad Muxtor, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Ali va boshqa badiiy tarjima sohasida ham samarali ijod qilganlar. Badiiy tarjima sohasida M. Osim, N. Alimuhamedov, Sh. Shomuhamedov, K. Qaxdorova, O. Sharopov,

Sh. Tolipov, V. Ro'zimatov, Q. Mirmuhamedov, A. Rashidov, M. Hakimov, I. G'afurov, M. Mirzoidov, g'. To'rabekov, T. Alimov va boshqa professional tarjimon sifatida tanilganlar. O'zbek tilida ilmiy-texnikaviy, ijtimoiysiyosiy adabiyotlar Tarjimachiligida ham katta yutuqlarga erishilgan. Bunda R. Abduraxdyunov, V. Rahimov, A. Shomahmudov, Tincherova kabi tarjimonlarning hissasi katta.

Tarjima amaliyotini, uning o'ziga xosliklarini, tarixini, tamoyillari, prinsip va qonuniyatlarini tarjimashunoslik fani o'rganadi, tarjimonga o'girish uchun asar tanlash, tillararo tafovutlar hamda asliyatga xos boshqa xususiyatlarni, milliy adabiy an'analarni hisobga olgan holda ish tutishda yordam beradi. XX asr o'zbek adabiyotida tarjimashunoslik maxsus fan tarmog'i sifatida yuzaga keldi va shakllandi. Cho'lpon, Sanjar Siddiq kabi mohir tarjimonlar nafaqat bu davr tarjima adabiyotini, ayni paytda tarjimashunoslik ilmini ham boshlab berganlar, tarjima haqida maqola va risolalar bitganlar.

O'zbekistonda tarjimashunoslik maxsus ilm sifatida o'tgan asrning 2 - yarmidan shakllandi. Asr oxiriga kelib, bu sohada 10 ga yaqin fan turi, 50 dan ortiq fan nomzodi yetishib chiqdi. Professor J. Sharipov tadqiqotlariga asosan adabiyotimiz tarixida tarjimaning o'rnini ko'rsatishga bag'ishlangan bo'lsa, professor F. Salomov asosan zamonaviy tarjimashunoslik masalalari bilan shug'ullandi, tarjima jarayoniga til hamda adabiy an'analarning ta'sirini ko'rsatib berdi. N. Komilov esa mumtoz janrlarning o'tmish va hozirdagi tarjimalarini tadqiq etdi.

O'zbek tarjimashunosligi asosan adabiy yo'nalishda taraqqiy etgan. Tarjimaning insoniy jihatlari keyinroq o'zbek tiliga ko'pgina xorijiy tillardan bevosita o'girishga yo'l ochilganidan so'ng rivojlana boshladi.

Tarjima va aloqa mexanik ravishda, bir tomonlama, to'g'rirog'i muayyan ikki madaniyat o'rtasidagina yuz beradigan tushuncha emas. Bu murakkab, o'zaro, ko'p tomonlama, ta'sir

va aks ta'sir xarakterida bo'lib, bir necha xalqlar yaratgan madaniyatlar ularning tillari ishtirokida sodir bo'ladi.

Xalqlar hech qachon bir-birlaridan mutlaq ajralgan holda yashashlari mumkin bo'lmaganligi singari, ularning moddiy va ma'naviy yodgorliklari, adabiyoti va san'ati hech qachon faqat bir milliy chegara doirasida "sof holda" saqlanib qolmagan.

Insoniyat yaratgan eng yaxshi adabiyot namunalari chegara bitmagan, goh o'zgarib, goh qo'shilib-chatishib ellardan-ellarga, ulardan tillarga ko'chib yurgan. Shuning uchun bunday umuminsoniy madaniy yodgorlik bo'lib qolgan asarlarning aniq tekstologik nusxasi-aslini tiklash u yoqda tursin, ba'zan katta ularning "vatanini" aniqlash ham mushkul bo'lib qoladi.

Eranizdan oldingi uchinchi ming yillikda, tosh davrining tugashi, metall davrining endigina boshlanishida bobillar yaratgan "Gilgomish" haqidagi, ibtidoiy moddiy madaniyat yodgorliklari, odamlar o'rtasidagi "dag'al" munosabatlarni aks ettiruvchi dostonni hozirgi zamon tillariga tarjima qilish, asarda tasvirlangan hayratomuz voqealarga sidqidil "ishonish"dan hamma o'zimizni tiya olmaymiz. "Gilgomish"dan ming yil keyin yaratilgan, qadimgi yunon mifologik va ijtimoiy voqeligini takrorlamas bir tarzda badiiy aks ettiruvchi "Iliada" va "Odiseya" dostonlarini o'z tiliga tarjima qilish ayni millatning o'ziga qodir ekanligini ko'rsatish timsoliga aylandi. Bu kabi dostonlar (Ming bir kecha, Mahobharata, Manas, Alpomish, Iqsa Muhammets, Igor jangnomasi va boshqalar) dunyodagi juda ko'p tillarga qayta-qayta tarjima qilinadi, tarjima vositasi bilan asarlarni o'z milliy madaniyatlari hodisasiga aylantirish uchun katta ummlarini sarf qilgan tarjimonlar, zukko kishilar, aql va qalbi dardlari ko'plab topiladi. Buyuk o'zbek olimi Abu Rayxon Beruniy ham Gomerning "Iliada" dostonidan xabardorgina emas, undan ayrim parchalarni tarjima qilganligi ham ma'lum.

Hozirgi kunda tarixiy-ilmiy ahamiyatga ega bo'lib qolgan katta tarjima adabiyotini yaratgan adiblar nazariya sohasida hamma narsani faqat jumboq holida qoldirib ketganlar, deb

hisoblash umuman to'g'ri emas. Ba'zan ular tarjima qilinayotgan muallif va uning ijodiga munosabat bildirganlar, tarjima qilish yo'l-yo'riqlari haqida fikr bayon qilganlar, baxslashganlar, asl nusxaning barcha badiiy-estetik xususiyatlarini kitobxonga mukammal yetkazish uchun o'z tarjimalariga muqaddima, sharxlar yozganlar. Masalan, mulla Murodho'ja shayx Sa'diyning "Guliston" asarini o'zbek tilida nashr qilar ekan, undagi tushunilishi qiyin bo'lgan arabcha-forscha so'z va tarkiblarga izoh beradi. Murodho'ja "Sababi tarjimai "Guliston" degan muqaddima yozib, unda Sa'diyning hayotini yoritishdan tashqari, bu asarni tarjima qilsih xususiyatlarini bayon etadi.

1557 - yilda Venetsiyada tabrizlik arman yozuvchisi Xristofor Armaniy tomonidan italyan tiliga o'girilgan "Shox Sarandibning uch navqiron o'g'lonlarining qanday qilib ziyoratg'a borg'oni" asari Husrav Dehlaviyning "Hasht bihisht" Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonlari asosida yaratiladi va bu asar yevropalik kitobxonlar orasida shuhrat topadi, shu boisdan uni ikkinchi marta nashr qiladilar. Oradan chorak asr o'tgach, 1583 - yilda o'sha narsaning o'zi nemischa tarjimada bosiladi. Endi nomi bunday o'zgarishga uchragan edi: "Sarandib shohi Ja'farning uch o'g'loni boshidan kechirgan hayratomuz sarguzashtlarning birinchi qismi g'oyat nafosat va fasohat birlan hikoya qilinmish, endilikda Bazel shahrining fuqarosi Iogann Vetsel tomonidan italyan tilidan nemischaga yangidan tarjima qilinmish". Nemis tilida bu kitob qayta-qayta nashr etilgan. 18 asrgacha 15 marta turli tillarda qayta nashr qilingan. Huddi shu matn fransuz (1719), golland (1766) tillariga o'girilgan. Bu asar ikki qismdan tashkil topgan. Birinchi qismida qanday qilib Sarandib shohi o'zining uch o'g'lini oqil va dono qilib tarbiyalagani hikoya qilinadi. Bolalar voyaga yetgach, shoh ularni hayot tajribasidan o'tkazish maqsadida sayohatga yuboradi. Ko'p sarguzashtlardan so'ng ular Bahrom Go'rning qo'liga tushadilar. Kitobning ikkinchi qismida Bahrom Go'r va Dilorom haqida hikoya qilinadi. Yevropa olimlari

mazkur sarguzasht asarning muallifini aniqlay olmaydilar. Bu muammoga Professor YE.E.Bertels javob beradi. "Xristofor kitobining birinchi qismiga Amir Xisravning "Hasht Behisht" dostoni manba bo'lgan, ikkinchi qismiga Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonidagi Bahrom va Dilorom voqeasi asos bo'la oladi. Shu tariqa A.Navoiy Yevropa mamlakatlariga tashrif buyurgan.

Tarjima tarixida qilingan ishlarning ham ijobiy, ham salbiy jihatlari zamonlar o'tishi bilan ro'yobga chiqib kelgan.

Badiiy tarjima va adabiy an'ana. Badiiy tarjimani ilmiy tavsiflash shundan iboratki, bunda so'zni so'z bilan emas, balki ma'noni ma'no bilan, ohangni ohang bilan, obrazni obraz bilan, yumorni yumor bilan berish muhim ahamiyatga egadir. "Badiiy tarjimaning boshqa turdagi tarjimalaridan farqi shundaki, so'z, jumla yoki butun bir asarni to'g'ri o'girish kifoya emas. Bunda tarjimon ham san'atkor bo'lishi lozim" Tarjimonlar o'zga milliy adabiyotlarda mavjud bo'lgan eng sara, katta ijtimoiy, adabiy-estetik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan kitoblarni o'z tillariga ag'darishga oshiqadilar.

Badiiy tarjima, o'z navbatida, she'riy va nasriy tarjima turlariga bo'linadi. Ular ham badiiy adabiyotning janrlariga qarab she'r, dramatik asarlar, roman, qissa, hikoya va hokazo tarjima yo'nalishlariga bo'linadi. Har bir yo'nalishning yuqoridagi ikki tur talablaridan kelib chiqib, umumiy va farqli jihatlari mavjud. Bu jihatlar asliyat mansub bo'lgan qonun-qoidalarini belgilab beradigan mezonlarga bog'liq yondashuvlar mohiyatidan kelib chiqadi.

Badiiy tarjimaning boshqa turlariga qaraganda she'riy tarjima "ko'proq" san'atdir. She'riy tarjima badiiy tarjimaning oliy navi desa bo'ladi. Nasriy asarlar tarjimasiga yozuvchilardan tashqari professional tarjimonlar ham jur'at etadilar. Ammo she'riy tarjima - bu aksariyat shoirlar, shoir-tarjimonlar ishidir. To'g'ri, ahyon-ahyonda ilgari nasriy asarlar tarjimasi bilan tanilgan tarjimonlar yoxud olimlar ham nazm tarjimasiga qo'l urganlar. Masalan, atoqli turkolog olim Sergey Nikolaevich

Ivanov Alisher Navoiyning "Lisonut-tayr" dostonini qadimgi original ijodga qaraganda ertaroq, badiiy tarjima tufayli sodir o'zbek tilidan ruschaga tarjima qildi. Talantli tarjimon Qodir bo'lganligi ko'zga tashlanadi. Chunonchi fors-tojik adabiyotida Mirmuhammedov Gomerning mashhur "Illiada"sini, atoqli an'ana tarzida shuhrat qozongan xamsachilik o'zbek yozuvchi Oybek A.S.Pushkinning "Evgeniy Onegin" she'riy adabiyotida ilk daf'a tarjima adabiyoti sifatida kirib keldi. romanini o'zbek tiliga o'girdilar. Abulqosim Firdavsiyning Alisher Navoiyning zabardast "Xamsa"si yozulguncha Nizomiy "Shohnoma"sidan uch jildi Hamid G'ulom, Shoislom Ganjaviyning "Panj ganj" Shomuhammedov, Jumaniyoz Jabborov, Nazarmat tarjimasi tufayli xalqimizning qo'liga tegdi.

Badiiy tarjima nazariyasi tarjimonga aniq tamoyillar asosida harakat qilish, o'z mahoratini takomillashtirishga yordam beradi. Tarjima tarixini kuzatadigan bo'lsak, badiiy tarjimada ikki yondashuv – tilshunoslik va adabiyotshunoslik yo'nalishi mavjudligini aytib o'tishga to'g'ri keladi. Tilshunoslar tarjima qonuniyatlarini leksik, grammatik va matniy muvofiqliklar ichidan izlaydilar. Adabiyotshunoslar esa asosiy e'tiborni tarjimaning aksiologik jihatlariga, ya'ni matnning g'oyaviy-estetik va badiiy fasohatiga qaratadilar. Ular uchun muhimi badiiy matnda estetik ekvivalentlikka erishishdir.

Tarjimada asliyatdagi kabi estetik ta'sirni hosil qilish, badiiy obrazni to'liq gavdalantirish ayrim hollarda tarjimonni jumla qurilishlarini o'zgartirishga, tarjimaning turli usullarini qo'llashga majbur qilishi mumkin. Biroq ekvivalentlik tamoyillarini buzishi va holatliy manzaradan uzoqlashishi mumkin emas.

Ko'p asrlik adabiy an'anaga ega bo'lgan milliy adabiyotlarning hammasida ham tarjima o'ziga munosib o'rinni ish g'ol qiladi. Binobarin, dadil aytish mumkinki, tarjima tarixini yaratmay, tarjimaning har bir davrda qanday qonuniyatlar asosida rivojlangani, ayni milliy adabiyot taraqqiyotida qanday tarjima maktablari tashkil topganligi va bu tarjimalar jahon madaniyatini rivojlantirishda qanday ro'l o'ynaganini aniqlamay turib, o'sha milliy adabiyot tarixini to'la, mukammal yoritish mumkin emas.

O'zbek klassik adabiyotida ayrim badiiy-estetik hodisalar

Tarkibida "Mahzanul asror", "Xusrav va Shirin", "Iskandarnoma" dostonlari o'zbek tiliga XIV asrning o'rtalari va XV asrning boshlarida o'girilgan edi. Bu tarjimalar o'zbek adabiyotida xamsachilik an'anasining qaror topishida muhim omil bo'lganligi shubhasiz.

O'zbek-nemis adabiy aloqalarining shakllanishi, ilk tarjima manbalari.

Dunyodagi har bir xalq o'z odati, an'analari va madaniyatiga ega. Ma'naviy madaniyatning ajralmas bir qismi bo'lgan adabiyot ham shular jumlasiga kiradi. Adabiyot – hayot ko'zgusi ya'ni bu xalqning orzu umidlari, o'y hayollari va turmushdagi real voqe'likni o'zida aks ettirgan bebaho xazinadir. O'zbekiston va Germaniyaning adabiy aloqalari – ikki qardosh xalqni tenglikka asoslangan serqirra aloqalarining muhim sahifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Adabiy va madaniy aloqalar va ularning xalqlarni yaqinlashtirishdagi roli qanday? Hech kimga sir emaski, adabiy va madaniy aloqalar – o'z-o'zidan xalqlarning ma'naviy xazinasining boyishida asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Evropaning, jumladan olmon xalqining adabiy me'rosini o'rganish va tadqiq qilish biz uchun qanchalik maroqli va foydali bo'lsa ajdodlarimizning bizga qoldirgan bebaho ma'naviy merosi Evropaliklar uchun ham shunday ahamiyatga egadir. Bu aloqalar tarixiga nazar tashlar ekanmiz, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Evropada O'rta Osiyo adabiy merosini o'rganilishi ancha uzoq davrlarga borib taqalganining guvohi bo'lamiz. O'rta Osiyoda esa bu ishlar asosan XX asrning 20 – yillarida jadidlar tomonidan yo'lga qo'yildi va rivojlantirildi. Ushbu yillarda yashab, faoliyat ko'rsatgan Mahmudxo'ja Behbudiy,

Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitratlarning bu borada olib borgan adabiyotiga ham mansub mumtoz asarlardan biri bilan oshno ishlari albatta diqqatga sazovar va taxsinga loyiqdir. Jumladan o'lish, qolaversa Xermann Xessening ruhiy ma'naviy dunyosi, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Abdurauf Fitratning "Hinduningdek, uning ijodi bilan yaqindan tanishish imkoni tug'ildi. ixtilochilari" asari 1923 - yil Berlinda nashr qilinishi ham Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Evropaliklarning bu aloqalarning rivojlanishiga muhim hissa bo'lib qo'shildi. qolaversa Olmoniyaliklarning O'rta Osiyoga, uning madaniyatiga Agar jadidlik harakati Sobiq Sovet Ittifoqi tomonidan barhamo'lgan qiziqishini ortishida Amir Temur shaxsiyatining berilmaganda edi, bu borada juda ko'p keng ko'lamli ishlar o'tgan o'rni ham kattadir. Chunki butun Evropa Amir Temurni amalga oshirilgan bo'lur edi. Zero, jadidlar boshqa xalqlarning amoniyalar Turkiyasi istilosidan qit'ani saqlab qola olgan ilmi, jumladan adabiy merosini o'rganish orqali xalqimizning aloqakor sifatida biladi. Shu sababli Amir Temur shaxsiyatini ma'naviy ongi va madaniyatini yuksaltirish va shu yo'l bilan o'rganishga bo'lgan intilish va harakatlar hozirgi kunda ham yuksaktaraqqiyetgan, ozod va obod davlat qurishni o'z oldilariga lavom etib kelmoqda. Jumladan 1996 yil 27-29 /IX/ kunlarida maqsad qilib qo'ygan edilar. O'zbekiston Sobiq SSSR tarkibida Samarqand shahrida Konrad Adenauer va Samarqand shahar bo'lgan davrlardagi adabiy aloqalari haqida to'xtaladigan hokimiyati homiyligida o'tkazilgan va "Amir Temur: shaxsini bo'lsak bu davrda ko'pgina nemis yozuvchilari asarlari asosan amondoshlari tomonidan baholanishi va faoliyatining rus tilidan tarjima qilindi. Bunga misol qilib Erkin Vohidov mustaqil O'zbekiston uchun ahamiyati" deb nomlangan tomonidan logann Volfgang Gyotening "Faust" asarini o'zbek alqaro simpoziumda nafaqat Temur va Temuriylar davrining tiliga tarjima qilinganligini ko'rsatishimiz mumkin. iyosiy hayoti balki bu davrdagi adabiyot, madaniyat va san'at

O'zbekiston istiqloлга erishgandan so'ng ikki davlat bo'yicha tadqiqot natijalari e'lon qilindi. Ushbu simpoziumning o'rtasidagi adabiy va madaniy aloqalar yana ham yuqori o'tkazilgan boshqa xalqaro simpoziumlardan alohida ajralib rivojlanish bosqichiga ko'tarildi. Istiqlol yillarida tarjimonlar uradigan farqi shundaki, ushbu tadbirda butun dunyoga tomonidan olmon adabiyoti yetuk vakillarining durdona nashhur Xirotdagi Boysung'ur Mirzo tomonidan tashkil etilgan asarlari o'zbek tiliga tarjima qilindi. Jumladan, tarjimon Mirzaali kattotlik maktabi haqida ma'lumotlar e'lon qilindi. Zero ushbu Akbarov tomonidan mashhur olmon yozuvchisi Xermann maktabda ko'chirilgan asarlar Evropada katta qiziqish bilan Xessening "Cho'l bo'risi" (Der Steppenwolf) asarini o'zbek o'rganilgan va qadrlangan. Chunonchi, simpozium qatnashchisi tiliga tarjima qilishi ham ikki xalq adabiy aloqalari tarixidagi Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi Sankt-Peterburg muhim voqea hisoblanadi. Bu asarning o'zbek tiliga tarjima universiteti fors bo'limi mudiri professor Akimushkin o'zining qilinishi olmoniyalik mutaxassislar tomonidan juda katta Boysung'ur Mirzo - san'at homiysi, siyosatchi va jangchi" xursandchilik bilan qabul qilindi. Jumladan Germaniyaning nomli ma'ruzasida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: Amir O'zbekistondagi elchixonasida xizmat qiluvchi mutaxassis temurning nabirasi, Shohruh Mirzo va Gavharshod og'aning 3 (attashe) Raban Richter asar tarjimasida quyidagi fikrlarni o'g'li G'iyosiddin Boysung'ur Mirzoning shaxsi (15.07.1397 - bildirib o'tdi: "Asarning xalqaro miqyosda qabul qilinishi hamda 19.12.1433) mahalliy sharqshunoslarda qiziqish uyg'otmagan, olamshumul ahamiyati nuqtai nazaridan uning o'zbek tiliga ilk dar o'zlarining tadqiqotlarida Boysung'ur mirzoga unchalik bor tarjima etilishi o'ziga xos madaniy voqeadir: birinchidan, o'tibor qilmaganlar. Biroq Temuriylar avlodining ikkinchi vakili bo'lmish bu serg'ayrat va qobiliyatli insonning XV asrning 1 - o'zbek kitobxoni uchun nafaqat olmon adabiyoti, balki jahon

yarmida Eron madaniyati, qolaversa o'rta asr sharq madaniyati tarixiga qo'shgan xissasini hunday ahamiyatli va yorqinki, mumtoys adabiyoti va o'rta asrlar madaniyati va san'atiga tarixchilarning e'tibor bermasliklari mumkin emas edi va ular Boysung'ur faoliyatining aynan shu qirrasiga murojaat qilganlar. Taxminan 823/1420 yilda Boysung'ur Mirzo saroy qoshida kutubxonani tashkil qildi va keyinchalik uni kengaytirdi. O'sha vaqtlarning andozalari bo'yicha bu kutubxona juda ulug' joy bo'lib, u aynan Temurga xos ko'lamda tashkil qilingan edi. Bu erda faoliyat ko'rsatgan ustalardan 17 xil ro'yxat bizgacha etib kelgan va ular dunyoning turli mamlakatlarida saqlanmoqda. Shuni ma'lumki, XV asr 20 - yillarining oxirlarida bu yerda 5 ta xatto 2 ta miniatyurachi va naqsh uslubini maxsus ishlab chiqadigan 2 ta usta, hammasi bo'lib 25 kishi ishlagan. Simpoziumning boshqa ishtirokchilari ham Temur va temuriylar davri san'ati va adabiyoti haqida qimmatli ma'lumotlarni berdilar. 1997 y. Toshkentda xalqaro simpozium haqidagi kitob nashr qilindi.

Bundan tashqari istiqlol yillarida adabiy aloqalarning rivojiga muhim xissa bo'lib qo'shilgan voqealardan biri shubhasiz Uchqun Nazarovning "Chayon yili" (das Jahr der Skorpions) asarining Ingeborg Baldauf xonim tomonidan olmon tiliga o'girilishi va nashr qilinishi bo'ldi. Asar Olmon kitobxonlari tomonidan juda iliq qarshi olindi. Bu asar orqali Olmon kitobxonlari o'zlari uchun o'zbek xalqining turmush tarzi, madaniyati, urf-odatlar, mentaliteti haqida yangi ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Yuqorida keltirgan misolimizning o'zi ham xalqlarning yaqinlashuvida adabiy aloqalarning roli qanchalar muhim ekanligining isbotidir. Asar muallifi Uchqun Nazarov Olmoniyaga taklif qilindi va ushbu kitobning olmon tiliga nashr qilinganligiga bag'ishlab matbuot anjumani o'tkazildi.

Jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rniga ega bo'lib borayotgan mustaqil vatanimiz boshqa aloqalar bilan bir qatorda ilmiy aloqalarni ham rivojlantirishga alohida e'tiborini

qaratmoqda. Har tomonlama rivojlangan davlatni shakllantirish uchun jahon davlatlarining davlatchilik sohasidagi tajribalarini o'rganish juda ham muhim va zarur. Shu maqsadda O'zbekiston Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi, Fransiya Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi va Gyote instituti hamkorligida olmon-fransuz seminari tashkil qilindi. Seminar quyidagi mavzularni o'zida qamrab olgan edi.

Yana shu o'rinda keyingi 20 - 30 yil ichida olmon tadqiqotchilari tomonidan Sharq adabiyotini o'rganish bo'yicha olib borilgan ishlarga ham to'xtalib o'tmoqchimiz. Jahon adabiyoti jurnalining 1998 - yil fevral oyiga bag'ishlangan sonida filologiya fanlari nomzodi dotsent Shavkat Karimov tomonidan e'lon qilingan "E'tirof va e'tiqod." Adabiyotimiz nemis tadqiqotchisi talqinida nomli maqolada bu haqda quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: Keyingi 20 - 30 yil ichida Germaniyada o'zbek adabiyotini o'rganishga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar e'lon qilishdi. Ularning bir qismi Sobiq Sovet andozasi qolipidagi yozuvchilar yozgan "shaklan milliy mazmunan sotsialistik" asarlar tadqiq etilganini ko'ramiz.

O'quv - metodik topshiriqlar:

1. Tarjima nazariyasining tarixi haqida fikrlaringizni bayon qiling.
2. Tarjimonlar o'z mushohadalarini tarjimalarida qanday ifodalantirishlari kerak?
3. Eramizdan oldingi davrlarni takrorlanmas bir tarzda badiiy ravishda aks ettiruvchi qanday dostonlarni bilasiz?
4. Ilk tarjima manbalari haqida, tariximiz xazinalari bo'lmish asarlar, dostonlar, balladalarining tarjima tarixi haqida qisqacha ma'lumot bering.
5. O'zbek - nemis tarjima adabiy aloqalari qay yo'sinda jadal rivojlana boshladi?

3-mavzu: Fanning predmeti, uslub va metodlari.

Reja:

1. Tarjima ilmiy-nazariy o'rganish ob'yekti sifatida
2. Tarjimashunoslikning rivojlanish bosqichlari
3. Tarjima nazariyasi fanining uslublari

Tarjima turli xalqlar o'rtasidagi do'stlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, ular o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiluvchi vositadir.

Tarjima tushuncha sifatida quyidagilarni ifodalaydi:

- Ilmiy-amaliy jarayon;
- Ilmiy-amaliy jarayon natijasi (buyuk adiblar asarlari tarjimasini);
- Tarjima – fan, o'quv predmeti.

Tarjima nazariyasi tarjimaning keng jonli amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan qarashlar, nuqtai nazarlar, kuzatishlar, rang-barang tajribalarni ilmiy-tanqidiy o'rganadi, tarjima qoidalari va tamoiillarini, ularning chegaralari, me'yorlarini bayon qiladi.

Tarjima ilmiy-nazariy o'rganish ob'yekti bo'lishi zarur. Unda tahlil va uyg'unlashtirish jarayoniga, matnda nimaga ahamiyat berish lozimligiga, qanday axborot zarurligi va maqsadga erishish uchun nimalarga e'tibor qilishga qaratilgan bo'lishi lozim. Tarjima murakkab jarayon bo'lib, tilshunoslik, psixologiya, madaniyat, adabiy jarayon va boshqa omillarni o'z ishiga oladi.

Tarjima nutqning bir turi sifatida tilshunoslik nuqtai nazaridan qarab o'giriladi, ya'ni tarjima jarayoni bu bir tilagi matnni ikkinchi bir tilga ag'darish – transformatsiya qilish demakdir. Mana shu har xil bajariladigan o'zaro ikki til o'rtasidagi ishlar, tilshunoslik nuqtai nazaridan tarjima jarayoni deb aytamiz. Shunday qilib, "tarjima"ni o'ziga xos transformatsiyalarning bir turi deb qarash mumkin. Bundan

kelib chiqadiki, tarjima nazariyasi predmeti bo'lib tillararo transformatsiyalarga, ya'ni tarjima jarayoniga bo'lgan ilmiy qarashlarning o'rganilishi yoritilishi sanalsa, uning ob'yekti bo'lib esa mavjud tarjimalar xizmat qiladi.

Tarjima qilinayotganda 2 ta matn bilan ish ko'riladi, shundan biri ikkinchisiga bog'liq bo'lmagan holda yaratilgan bo'lib, manba matn vasifasini bajaradi, ikkinchisi esa bir qancha amallar, tillararo transformatsiyalar orqali bir matn asosida yaratiladi. Birinchi matn orginal teksti deb atalsa, ikkinchisi tarjima teksti deb yuritiladi. Orginal matn yozilgan til manba til (source language) deb ataladi. Orginal tekst ag'darilayotgan til esa tarjima tili deb yuritiladi (target language).

Chet til – bu xorijiy mamlakat tilidir. Respublikamizda qit'arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, fransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o'qitilib kelinmoqda. Bu tillar ta'lim muassalarining o'quv rejalaridan o'rin olgan. Uchala tili o'qitish jarayoni turlicha kechadi. Ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun'iy muhitda o'rganiladi. Chet tilidagi muloqot, asosan, darsda muallim rahbarligida kechadi. Uchala til orasida chet tilni o'rganish va o'rgatish muayyan jihatlari bilan keskin farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, tegishli chet til o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi. Chet til muallimi metodika fani yutuqlarini puxta o'zlashtirish orqali o'quvchi –talabaning to'plagan til tajribasi me'yorini aniq bilishga va uni yanada takomillashtirishga erishadi. Chet tillarni namarali o'rgatish uning metodikasini bilishni taqozo etadi. Chet tillarni o'rganish va o'rgatish ko'p jihatdan chet til o'qitsih metodikasi masalalarini nazariy tomondan ishlab chiqilishiga va nazariyaning amalda ijodiy qo'llanilishiga bog'liqdir.

Dunyo xalqlari bilan manaviy muloqotni taminlovchi muhim vosita bu tarjima hisoblanadi. Zamonlar o'tishi bilan tarjimaga bo'lgan talablar yangilana borsada, ammo uning ijodiy xarakteri, qayta yaratish san'ati ekanligi o'zgarmasdan qoladi. Tarjimaning ko'lam va taraqqiyoti har bir xalqning ma'rifiy

darajasiga va manaviy saviyasiga bog'liq va o'z navbatida, millatning ijtimoiy tafakkuriga samarali ta'sir etadi.

Tarjimonshunoslikning rivojlanishi va nazariya shakllanishida taniqli tilshunos va tarjimashunos olimlari V.Komissarov, A.Fyodorov, L.Barhudarov, Ya.Retsker, F.Salomonov, Q.Musayev, Yu.Nayda, J.Ketford va boshqalar katta hissa qoshdilar.

O'zbek tarjimashunosligida Gaybulla as-Salomni o'rni katta bo'lib, "Maqol, matal va ideomalar tarjimasi", "Badiiy tarjimaning leksik-frazeologik masalalari", "Rus tilidan o'zbek tiliga maqol matallar tarjimasi" kabi risolalari, shuningdek "Til va tarjima" (1964) nomli monografiyasi professorning dastlabki ishlarida bolsada tarjimashunoslikda tub o'zgarish yasadi.

Bugungi kunda XXI asrning zamonaviy tarjimashunosligiga ko'plab o'zbek tarjimon va lingvistlari o'z hissalarini qo'shishda kelishmoqda. Bulardan Xurshid Davron, Muhammad Aliyev, Ibrohim Gafurov, Qudratxon Musayev, Abduzuxur Abduazizov, Najmiddin Komilov, Begoyim Xolbekovalarni misol keltirishimiz mumkin.

Bundan tashqari, Malkolm Marsh shunday deydi: "Tarjimon - bu tushunish va ifodalashni o'z ichiga oluvchi ikki qismli mashg'ulotdir. Tushunish manolarni turli darajada idrok etish va shuningdek matn mazmun sohasi bilan tanish bo'lish uchun asliyat tili bo'yicha chuqur bilimni talab etadi. Ifoda etish asliyat tilida tushunilgan narsani tarjima tilida iloji boricha aniq va ishonchli usulda hamda bir vaqtning o'zida asliyat tilidagi uslubni saqlab qolgan holatda qayta yaratish qobiliyatidir".

Yuqoridagi tariflardan ko'rinib turibdiki, tarjima murakkab jarayon bo'lib, tarjimon yuksak mahorat va chuqur bilim salohiyatiga ega bo'lishi lozim. Tilni bilishning o'zi badiiy asar tarjimasi bilan shug'ullanish uchun yetarli emas.

Katford tarjimini ko'lam (extent), darajasi (level) va sifati (rank) ga ko'ra turlarga ajratadi. Ko'lamiga (extent) ko'ra: to'liq (full) va qisman (partial); darajasiga (level) ko'ra: umumiy (total) va cheklangan (restricted); ranks (rank-bound vs

unbounded translation) tarjima turlariga ajratadi.

To'liq tarjimada (full translation) butun matn tarjima jarayoniga jalb etiladi va asliyat tilidagi hamma qism tarjima tilidagi material bilan almashtiriladi.

Qisman tarjimada (partial translation), asliyat tilidagi ba'zi qismlar tarjima qilinmasdan qoldiriladi, ular shunchaki tarjima tiliga o'tkaziladi va kiritiladi. Bu tarjima turidan asosan "tarjima qilinmaydigan birliklar" bo'lganida yoki asliyat tilidagi mahalliy bo'yqadorlikni saqlab qolish uchun foydalaniladi.

Yuqoridagi turlardan farqli o'laroq, umumiy tarjima (Total Translation) asliyat tilidagi matnning barcha til birliklari tarjima tilidagilari bilan almashtiriladi. Ammo cheklangan tarjima - asliyat tilidagi matn materialining faqatgina bitta birligi - fonetik, grafik, grammatik yoki leksik - tarjima tiliga o'girilishi bilan farqlanadi.

Uchinchi tarjima turi grammatik (yoki fonetik) ierarxiyadagi darajalar bilan bog'liq. Katford tarjimaning bu turini ikki kichik guruhga ajratadi: rank-bound translation va unbounded translation.

Rank-bound translation umumiy tarjimada yuzaga keladi, biroq u tarjima tilidagi ekvivalentlarni tanlashda grammatik birliklar ierarxiyasidagi bir daraja - ko'pincha so'z yoki morfema darajasida chegaralangan bo'ladi. Bunga zid ravishda, tarjima tilidagi ekvivalentlar cheklanmagan tarjimada (unbounded translation) erkin pastdan yuqoriga siljishi mumkin.

Bulardan tashqari, Katford tarjimaning mashhur uchta turi: so'zma-so'z tarjima (word-for-word translation), erkin tarjima (free translation) va literal translation turlarini ham tanishtirgan. U ushbu tarjima turlariga quyidagicha tarif beradi:

"Word-for-word translation generally means what it says: i.e. is essentially rank-bound at word-rank (but may include some morphemes-morphemes equivalences).

Free translation is always unbounded—equivalences shunt up and down the rank scale, but tends to be at the higher

ranks—sometimes between larger units than the sentence.

Literal translation is between word-for-word translation and free translation. It may start, as it were, from a word-for-word translation, but make changes in conformity with the target language grammar (e.g. inserting additional word, changing structure at any rank, etc.); this may make it a group-group or clause-clause translation”.

Soʻzma-soʻz tarjima asosan asliyat va tarjima tilidagi grammatik struktura bir xil boʻlganida qoʻllaniladi. Sabab bunaqa vaziyatlarda grammatik oʻzgarish yuz bermaydi.

Tarjima jarayonida biror matnni bir tildan ikkinchi tilga oʻgirar ekanmiz, matndagi ikki jihatga alohida eʼtibor berish kerak. Bular shakl va maʼno. Larson “Meaning based translation” asarida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Because a given text has both form and meaning, there are two main kinds of translations. One is form-based and the other is meaning-based”.

Shaklga asoslangan tarjima asliyat tilidagi shaklga mos boʻlishga harakat qiladi va soʻzma-soʻz tarjima (literary translation) nomi bilan maʼlum. Manoga asoslangan tarjima asliyat tilidagi matnning maʼnosini tarjima tilida tabiiy shakllarda yetkazish uchun barcha harakatlarni amalga oshiradi. Bunday tarjima idiomatik tarjima (idiomatic translation) deb ataladi. Buni yana shunday ifodalashimiz mumkinki, soʻzma-soʻz tarjima (literal translation) asliyat tilidagi shaklni moslashtirishga urinsa, idiomatik tarjima (idiomatic translation) asliyat tilidagi maʼnoni ifodalashga urinadi.

Soʻzma - soʻz tarjima – asliyat tilining strukturasi koʻzgusi boʻlib, tarjimani tushunishni qiyinlashtiradi va asl maʼnoni buzib koʻrsatishi mumkin.

Ideomatik tarjima – tarjima tili strukturasi amal qiladi va asl manoni tarjima tilida tabiiy usulda ifodalaydi.

Erkin tarjima – koʻproq tarjima tili strukturasi amal qiladi, asl manbaning baʼzi qismlari oʻzgartirilishi yoki buzilishi mumkin.

Uslublar, til vositalarining nutqda ishlatilish yoʻllari, fonetik, lugʻaviy, frazeologik va grammatik birliklarning qoʻllanish xususiyatlari tilshunoslik fanining uslubiyat boʻlimida oʻrganiladi. Uslub orqali soʻzlovchi shaxs-kimsa, narsa-buyumlarga, atrofda roʻy berayotgan voqea-hodisalarga oʻz munosabatini bildiradi.

Oʻzbek adabiy tilida quyidagi asosiy nutq uslublari bor:

- a) soʻzlashuv uslub;
- b) badiiy uslub;
- c) rasmiy uslub;
- d) ommabop (publitsistik) uslub;
- e) ilmiy uslub.

Oʻz navbatida ijtimoiy-siyosiy uslubni publitsistik uslub deyish mumkin. Fanda voqelikning oʻquvchiga obrazli, estetik jihatdan taʼsir etuvchi uslub badiiy uslub deyiladi. Bu uslubda hissiy-ekspressivlikni ifodalovchi holatlar koʻp uchraydi. Shu bilan bir qatorda, ommabop (publitsistik) uslubda ham bunday til birliklaridan samarali foydalaniladi. Ommabop uslub aslida tashviqot-targʻibot ishlarini olib borishda qoʻllaniladi. Soddalik, tushunarliklik, taʼsirchanlik, adabiy til meʼyorlariga rioya qilish ommabop uslubning asosiy belgilaridan hisoblanadi. Unda ijtimoiy-siyosiy soʻzlar va soʻz birikmalaridan faol foydalaniladi. Bundan tashqari, nutq taʼsirchan boʻlishi uchun shunga xizmat qiladigan soʻz va birikmalar, maqol, matal va hikmatli soʻzlar ham koʻp ishlatiladi.

Taniqli tarjimashunos Gʻ. Salomov uslubga quyidagicha taʼrif bergan: «Uslub badiiy asarning umumiy jarangi va koloriti, obrazni tahlil qilish usuli, sanʼatkorning voqelikka boʻlgan munosabati, prinsipidir. Bular badiiy jarayonning yakunlovchi bosqichida shaklning asosiy tomonlarini yaxlit aks ettiruvchi xususiyat sifatida asarda zohir boʻladi. Uslub yozuvchi ijodining asarlarida takrorlanib turadigan asosiy, tipik gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari majmuidir. Yozuvchining dunyoqarashi va u yaratgan asarlarning mazmuniga aloqador asosiy gʻoyalar,

muallif ko'proq tasvirlagan syujet va xarakterlar silsilasi san'atkor ijodida tez-tez uchrab turadigan badiiy tasviri vositalari, o'ziga xos tili uning individual uslubini tashkil etadi.

Asar yaratishda yoki uni boshqa bir tilga tarjima qilishda uslub alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada shuni ta'kidlash lozimki, badiiy asar uslubi bilan ijtimoiy-siyosiy asar uslubi tabiiyki bir-biridan farq qiladi. Bu jihat asarni bir tildan ikkinchisiga o'girishda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Badiiy tarjimada asosiy muddao asliyat matnining ta'sir kuchini boshqa tilda ham qayta tiklash bo'lsa, ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimasida matndan anglashilgan ma'noni to'la-to'kis aks ettirish bosh maqsad qilib olinadi. Boshqacha aytganda, badiiy tarjimada - asliyat ohangi, uning badiiy tarovati, ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimasida - falsafiy ma'no asosiy tarjima birligi hisoblanadi. Lekin ularning har ikkala tarjimasida ham mutarjimdan ijodiy mahorat talab qilinadi. Ya'ni uslubiyatdan qat'iy nazar qanday matn bo'lmasin asliyatdagi fikr to'la-to'kis tarjima qilinayotgan tilda o'z aksini topishi zarur.

Birinchidan, badiiy asar ijodkori uslubini tarjimada qayta yaratish - bu asarda ijodkor qo'llagan tasviriy vositalar - timsoliy ifodalar, mubolag'a, o'xshatishlar va bo'yoqdorlikning tarjimada aks etishidir. Ijtimoiy-siyosiy asar muallifi uslubini tarjimada qayta yaratishda publitsistik uslubga xos bo'lgan xususiyatlarga alohida e'tibor qaratgan holda ish yuritiladi. Bunday adabiyotlar tarjimasi borasida uslubshunos T. Qurbonov dissertatsiyasida muayyan fikrlar bildirilgan.

Unda muallif publitsistik uslubning eng muhim xususiyatlarini sanaydi. Ulardan ayrimlariga to'xtalib o'tamiz:

1. Ijtimoiy-siyosiy munosabatni ifodalash. Bunda operativlik, ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni qisqa bayon qilib berish lozim bo'ladi. Publitsistika - bu publitsist bilan o'quvchi o'rtasidagi ochiq muloqotdir. Publitsistik uslubning asosiy maqsadi keng ommaga g'oyaviy ta'sir o'tkazish, ularda ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashni shakllantirish va o'z qilayotgan

ishlariga ishonch bilan kirishishlariga yordam berishdir.

2. Publitsistik uslubda aniqlik, lo'ndalik, amaliy nutqqa xos sintaksis, qattiyat va hayotiylik ustuvor bo'ladi.

3. Axborotni tezkorlik bilan yetkazish uchun publitsistik uslubda til lahjalaridan, arxaizm va istorizmlardan kamroq foydalaniladi. Unda bugungi kun muammolari ustuvor bo'ladi. Masalan, «kuch» so'zini oladigan bo'lsak, ilmiy uslubda ushbu so'zning jismoniy xususiyatlari ko'rsatilishi mumkin. Ammo publitsistik atama sifatida bu so'zlar - progressiv kuch, yot kuch, qora kuch kabi birikmalar tarkibida qo'llanilishi mumkin. Publitsistik uslubda ijtimoiy-siyosiy atamalar, birikmalar va muayyan qo'lidagi so'zlardan keng foydalaniladi. Masalan, umumxalq, hamkorlik, qurolsizlanish, milliy mustaqillik, sovuq urush, koinotni o'zlashtirish, siyosiy demonstratsiya, ishlab chiqarish ilg'orlari kabilar.

4. Lo'ndalik, masalani aniq qilib qo'yish, so'zamollik publitsistik uslubga xos bo'lgan xususiyatlardir.

5. Publitsistik uslubdagi gaplar asosan ritorik xarakterga ega bo'lib, unda sodda gaplardan ko'proq foydalaniladi.

6. Publitsistik uslub rasmiy ish uslubiga juda yaqin keladi.

7. Publitsistik uslubda faktlar birinchi shaxs tomonidan gapiriladi. Badiiy uslubda esa bu vazifa ko'proq uchinchi shaxsga havola etiladi. Badiiy asardagi avtor nutqi muallifning shaxsiy nutqi bo'lmaydi.

Publitsistik uslubda quyidagi sifatlash va epitetlar keng qo'llaniladi: munosib (ulush), tarixiy (o'zgarish, voqealar), har tomonlama (munosabat, taraqqiyot), muhim (davr, boshqich), fidokorona (mehnat), ulkan, buyuk (inshoot, ishlar) va boshqalar. Bundan tashqari, publitsistik uslubda quyidagicha tantanavor so'zlar ham keng qo'llaniladi: ijodkor yoshlar, muhtasham, ulug'vor, zafar quchmoq, bukilmas iroda, barkamollik, shijoatkorlik va boshqalar. Shu bilan bir qatorda, bunday uslubda salbiy bo'yoqqa ega bo'lgan hissiy nutqqa xos jinoyatchilar to'dasi, talon-taroj, o'g'rilik, qotillik, tekinxo'rlik,

eskilik sarqitlari, surbetlik va boshqalar kabi so'zlar ham qo'llaniladi.

Publitsistik uslubning lisoniy tarkibi quyidagi qatlamlarni o'z ichiga oladi:

1. Ma'furaviy (kontekstual) leksika.
2. Hissiy – ekspressiv bo'yoqli leksika:
 - a) ijobiy bo'yoqli so'zlar;
 - b) salbiy bo'yoqli so'zlar;
 - c) modallik xususiyatiga ega bo'lgan so'zlar.
3. Hissiy – ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan leksik neytral so'zlar.

Mustaqillik davri ijtimoiy-siyosiy atamaları, ya'ni publitsistik uslubga xos ma'furaviy leksika avvalgilardan jiddiy farq qiladi. Sho'ro davri publitsistikasida «sovet», «sotsializm», «sotsialistik», «kommunistik» kabilar asosiy ideologik atamalar bo'lgan bo'lsa, hozir «mustaqillik», «ozodlik», «milliy g'oya», «milliy ma'fura», «vatanparvarlik», «barqarorlik», «insonparvarlik», «internet», «istiqlol», «ko'p partiyaviylik», «ma'naviyat», «ma'rifat», «Oliy Majlis», «parlament», «referendum», «Senat», «tolerantlik», «qadriyatlar» kabi atamalar keng qo'llanilmoqda. Avvallari keng qo'llanilgan ma'furaviy leksika o'rniga hozirgi kunda mustaqillik ma'furasini ifodalovchi so'zlar ishlatiladi.

O'zbek tilshunosligida publitsistikaning shakllanishi va rivoji borasida tadqiqot olib borgan Donoxon Ne'matova o'zining «Cho'lpon publitsistik asarlarining lingvistik tahlili» mavzudagi nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek publitsistikasi haqida muayyan fikrlar bildirgan.

I. A. Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida hozirgi zamon publitsistikasi va shu soha mutaxassislari oldidagi vazifalar haqida shunday yozadi: «Haqiqatan ham, respublikadagi yangi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy shart-sharoitlar ommaviy axborot vositalari oldiga

mutlaqo yangi, shu paytgacha notanish bo'lgan vazifalarni qo'yimoqda». O'zbek publitsistikasi haqida tadqiqot olib borgan Donoxon Ne'matova -ushbu vazifa ommaviy axborot vositalarining juda kuchli, ta'sirchan tarkibiy qismi bo'lgan publitsistik asarlar oldiga muhim talablar qo'yadi, deb ta'kidlaydi. Shu bilan bir qatorda olim publitsistik asarlar ta'sirchanligini, omma ongiga tez yetib borishini bunday asarlarning asosiy xarakterli tomoni, deb hisoblaydi.

Uslublar ichida ommaviy (publitsistik) uslub o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Ommaviy axborot vositalaridagi maqolalar, mahruzalar va shu sohada yaratilgan asarlar publitsistik uslubda yoziladi.

Uslublar o'ziga xos lug'ati, turg'un birikmalari, jumla va sintaktik qurilmalari, bundan tashqari, ekspressiv xususiyatlariga ko'ra bir-birlaridan ajralib turadi. Shunga ko'ra uslublar tarjimada o'zining muqobili yordamida aks ettirilishi kerak bo'ladi. Birini ikkinchisi bilan o'zgartirish yoki almashtirish tarjimada noaniqlik yoki g'alizlik keltirib chiqaradi. Masalan: Islom Karimovning O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari asarida hozirgi zamonga, mustaqillik ma'furasiga asos atama va so'zlardan foydalanilgan. Bundan tashqari, muallif uslubida lo'ndalik, aniqlik yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Yana bir e'tiborli tomoni shundaki, asarda hissiy-ekspressivlikni ifodalovchi vositalardan ham o'rinli foydalanilgan.

Darhaqiqat, ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimasi borasida aniqlik, lo'ndalik, eng asosiysi, ma'no ustuvorligi birinchi o'rinda turar ekan, albatta, tarjimon bu talablarga javob berish uchun, avvalo, tarjima predmetini chuqur o'rgangan bo'lishi kerak. Bu borada G'. Salomov o'zining «Tarjima tashvishlari» asarida quyidagi fikrlarni bildiradi: «Tarjima qilish uchun so'zlarning asosiy lug'aviy mazmuni – yu tilning grammatik qoidalarini bilishning o'zi kifoya emas. Buning uchun tilni his qilish lozim. Tilning ana shunday «hissiy» tomonlaridan biri

muayyan asarda avtor tilning qaysi qatlamlaridan, qanday, uslublaridan, til vositalaridan mohirona foydalana bilishini taqozo qiladi. Prezidentimiz tomonidan yozilgan asarlarni shu jihatdan kuzatadigan bo'lsak, uning tilimiz imkoniyatlaridan mohirona foydalanganligidan tashqari, mustaqillik davriga xos bo'lgan ko'plab ijtimoiy-siyosiy sohaga oid terminlar qo'llaganligi, shu soha terminologiyasini rivojlantirib, yangi so'z va so'z birikmalarini iste'molga olib kirganligining guvohi bo'lamiz. Bu borada publitsist - yozuvchi o'z maqsadiga erishish uchun tilning ifoda vositalari - metafora, metonimiya, kinoya, o'xshatish, sifatlash, tasviriy ifoda kabilardan unumli foydalangan.

I. A. Karimovning notiqlik madaniyati va asarlaridagi o'zining xos uslubi to'g'risida ilk bor Baxtiyor Omonov o'zining «Siyosiy yetakchi nutq madaniyatining jamiyatni demokratlashtirish jarayonlariga ta'siri» mavzusidagi dissertatsiyasida munosabatlarni bildirdi. Unda Islom Abdug'anievich Karimov uslubiga xos quyidagi sifatlar ko'rsatib o'tilgan:

- Nutqning ommaviyligi.
- Nutqning ta'sirchanligi.
- Nutqning jonliligi.
- Yetakchi bilan omma birligini namoyon etadigan hodisa bo'lganligi.

Bizningcha, I. A. Karimov publitsistik nutqidagi o'zining xoslikni belgilovchi bir

qator omillar mavjud bo'lib, asosiylari sifatida quyidagilarni sanash mumkin:

- 1) muallifning o'z fikrlarini ifodalashda lo'ndalikka soddalikka intilishi;
- 2) tilning ifoda vositalaridan o'zo'rnida unumli foydalanishi;
- 3) tilning eng jozibali qatlami-maqol, matal va frazeologik birliklardan mohirona foydalana bilishi;
- 4) nutqning sodda va ravonligi;
- 5) muallifning yetuk siyosatshunos olim sifatida namoyon bo'lishi.

Badiiy asar muallifidan farqli ravishda, publitsist yozuvchi avvalo, o'z nutqini keng omma, shuningdek oddiy xalq uchun moslashtirishi, muvofiqlashtirishi kerak bo'ladi. Shunga ko'ra birinchidan, nutqda soddalikka intilishi, ikkinchidan, nutqni jonli muloqot shaklida olib borishi, uchinchidan, o'zi ifodalamoqchi bo'lgan fikrini yetkazishda, ommaga ta'sir ko'rsatishda til imkoniyatlaridan faol foydalanishga erishishi taqozo qilinadi. Demak, bularning barchasi publitsist - yozuvchi tilning ifoda

uslublaridan, til vositalaridan mohirona foydalana bilishini taqozo qiladi. Prezidentimiz tomonidan yozilgan asarlarni shu jihatdan kuzatadigan bo'lsak, uning tilimiz imkoniyatlaridan mohirona foydalanganligidan tashqari, mustaqillik davriga xos bo'lgan ko'plab ijtimoiy-siyosiy sohaga oid terminlar qo'llaganligi, shu soha terminologiyasini rivojlantirib, yangi so'z va so'z birikmalarini iste'molga olib kirganligining guvohi bo'lamiz. Bu borada publitsist - yozuvchi o'z maqsadiga erishish uchun tilning ifoda vositalari - metafora, metonimiya, kinoya, o'xshatish, sifatlash, tasviriy ifoda kabilardan unumli foydalangan.

O'quv - metodik topshiriqlar:

1. Tarjima fanining tushunchasi deganda nimalarni misol tariqasida ayta olamiz?
2. Katford tarjima qanday turlarni o'z ichiga qamrab oladi?
3. Tarjima nazariyasi fanining uslublari haqida to'xtalib o'ting.
4. Publitsistik uslub haqida nimalarni bilasiz?
5. O'zbek tilshunosligida publitsistikaning shakillanishi haqidagi fikrlaringizni bayon qiling.

4-mavzu: Tarjima turlari.

Reja:

1. Tarjima jarayonlarini insoniyat sivilizatsiyasiga nisbatan o'rni
2. Sinxron tarjimaning yurtimizdagi o'rni borasidagi fikr va mulohazalar
3. Vizual tarjimaning asosiy yo'nalishlari

Tarjimashunoslikda asl nusxa tili va tarjima tilidagi materialning qay shaklda amalga oshirilishiga qarab tarjimaning turlarga ajratish mumkin. Bu birinchi tasniflashtirishga asos bo'luvchi omildir. Tarjimashunoslikda tarjimaning turlarini ularning mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib ajratish ham amalga oshirib kelinmoqda, unda tarjimaga aloqador har ikkala tildagi matnlarning shakli emas, balki ularning mazmuni yoki mohiyatiga tayanib tasniflashtiriladi.

L. S. Barhudarov asl nusxa tili va tarjima tili matnining qanday shaklda berilishiga ko'ra tarjimaning to'rt asosiy turini ajratadi:

- 1) og'zaki-og'zaki;
- 2) yozma-yozma;
- 3) og'zaki-yozma;
- 4) yozma-og'zaki.

Bu tarjima turlari ichida og'zaki-og'zaki tarjima nazariyasini 2 turga bo'lib o'rganiladi:

- 1) og'zaki izchil tarjima;
- 2) og'zaki sinxron tarjima.

V. N. Komissarovning tarjima tasnifi quyidagicha ta'riflaydi:

- 1) badiiy tarjima;
- 2) informativ tarjima.

G. M. Xoshimovning tarjima tasnifi haqida esa quyidagilarni misol tariqasida olishimiz mumkin:

- 1) badiiy tarjima;

2) nobadiiy tarjima.

R. K. Min'yar-Beloruhev tasnifiga ko'ra quyidagi tarjima turlari mavjud:

- 1) yozma tarjima;
- 2) sinxron tarjima – og'zaki;
- 3) izchil tarjima;
- 4) varaqdan tarjima.

Tarjimada yana nima tarjima qilinayotganligiga qarab tarjimaning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

- 1) badiiy tarjima;
- 2) ijtimoiy-siyosiy tarjima;
- 3) ilmiy-tarjimaviy tarjima.

Tarjima jarayonlari yer yuzidagi xalqlarning insoniyat sivilizatsiyasini birgalikda, yaqin hamkorlikda yaratib borganini ko'rsatadi.

Sinxron tarjima

Aslini olganda, sinxron tarjima XX asrga kelibgina o'zini o'zlashtirish boshlandi. XIX asr oxiri – XX asrning boshlari insoniyat faoliyatining ko'plab sohalarida – sanoat, fan, savdo, madaniyatda jadal rivojlanish bo'lgani bilan ajralib turadi. Xalqaro hamkorlik o'sib bora boshlagan ham yangi shakllarga kasb etgan. Keskin ortib borayotgan talabni qondira oladigan yangi doqqa imkoniyatlariga ehtiyoj sezila boshladi. Sinxron tarjima birinchi marta 1919-yilda Parijdagi tinchlik konferensiyasida o'zini o'zlashtirilgan. SSSRda sinxron tarjimadan ilk bor 1926-yilda, Kominternning 6-kongressi paytida istifoda etilgan. Sinxron tarjimonlarning sa'y-harakatlari tufayli akademik Pavlovning 1935-yilda Leningradda bo'lib o'tgan XV Xalqaro fiziologik kongressdagi ochilish nutqi ingliz, nemis va fransuz tillarida o'qilgan. Kommunistik partiyaning 20 – syezdi oltita tilda o'qib borilgan. II Jahon Urushidan so'ng 1946-yildagi Nyurnberg Xalqaro harbiy sudida ilk marotaba sinxron tarjimadan foydalanildi. Sinxron tarjima talabi dastlab tarjima bilan shug'ullanuvchilarning mutlaq aksariyatini sarosimaga soldi.

Hatto sinxron tarjima tanqid ostiga olinib, uning maqsad muvofiq emasligi haqida mulohazalar bildirildi. Shuningdek, qaramay, sinxron tarjima imkoniyatlarining amalda namoyish qilinishi natijasida tez orada yangi soha mutaxassislarini tayyorlash dasturlari ishlab chiqila boshlandi. Sinxron tarjimaning kasbiy va akademik mezonlari belgilandi. Bunday hali-hanuz ko'pchilikning sinxron tarjimaga skeptik nazar bilan qarashi seziladi.

Sinxron tarjima og'zaki tarjimaning eng qiyin turi bo'lganidan undan tarjimon gapiruvchi notiqdan bir so'z yoki jumla orqada qolib tarjima qiladi, unga tarjima uchun vaqt berilmaydi. Tarjimon bunday paytda ham eshitadi, ham tushunadi, ham tarjima qiladi, ham gapiradi.

Mana shu operatsiyalarning barchasini sinxron tarjimon bir vaqtda bajaradi. Bu esa undan chuqur bilim saviyasida mulohaza qilish, tez tushunish, tezda to'g'ri va to'laqonli tarjima qilishni talab etadi. Bu tarjima ingliz tilida "simultaneous/synchronous translation" deb yuritiladi.

Shuningdek, sinxron tarjimada, tarjimon tarjima qilish kabinasida o'tiradi va naushnik (quloq eshitgich) orqali so'zlovchini tinglaydi, so'ng tinglash chog'ida mikrofon orqali tarjima qiladi. Konferensiya xonasidagi delegatlar asosiy til naushnik orqali tinglashadi. Sinxron tarjimon imo-ishoralari orqali ham bajariladi (kar va soqovlar uchun). So'zlangan tilda imo-ishora tiliga tarjima qilinadi. Imo-ishorada tarjimonlar kabinada o'tirishmaydi: ular so'zlovchini ko'ra oladigan va boshqa qatnashchilarga ko'rinish oladigan konferensiya xonasida turishadi. Pichirlab tarjima qilish sinxron tarjimaning shunday shakli, bunda, tarjimon konferensiya xonasining kabinasida emas, balki tarjima kerak bo'lgan delegatning ortida o'tiradi va nutqning asosiy mazmunini delegatning quloqiariga pichirlaydi.

Sinxron tarjima turlari:

Amalda, sinxron tarjimaning uchta turi mavjud bo'lib, ular turli xil tarjimalarga tegishli:

Yodaki (eshitib) sinxron tarjimada. Bunda tarjimon quloqchinlar orqali notiqning uzluksiz nutqini qabul qilib, ma'lumotning tushishiga qarab tarjimani bloklab (qismlarga bo'lib) amalga oshiradi. Bu keng tarqalgan va eng murakkab holatdir;

Sinxron tarjimonga notiq nutqining yozma matni oldindan berilgan bo'ladi. Oldindan tayyorgarlik ko'rib, yoki tayyorlanmasdan matnga qarab sinxron tarjima. Sinxron tarjimon oldindan notiqning yozma nutq matnini oladi va keltirilgan materiallarga mos tarzda tarjimani amalga oshiradi; Oldindan tarjima qilingan matnni bir vaqtning o'zida ya'ni sinxron tarzda o'qish berish. Bu versiyada, ma'ruzachining nutqidan so'ng, sinxron tarjimon tayyorlangan matnni o'qiydi va agar kerak bo'lsa, agar notiq berilgan matndan chetga chiqsa, tuzatishlar kiritadi.

O'zbekistonda sinxron tarjima:

Yurtimizda tarjimaning asosan yozma turi taraqqiy qilgan va bunga turli tarixiy davrlardan tortib oxirgi yuz yillikdan yozma tarjimaning ajoyib namunalarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Lekin so'nggi 30 yilni olsak, endilikda og'zaki tarjima, shu jumladan, sinxron tarjimaga ko'proq qaratilayotganini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, hozirgi davrda talangan tildan, shu jumladan, o'zbek tilidan boshqa tilga, boshqa tildan o'zbek tiliga tezkor, bexato, adekvat, mantiqiy tarjima qila olish mahoratini shakllantirish dolzarblashib borgan. O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi bilan bo'liq barcha qonun va dasturlarida zamon talablariga muvofiq bo'lgan barcha shart-sharoitlar, imkoniyatlar va asoslar belgilab qo'yilgan. Ushbu qaror asosida so'nggi yillarda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti va boshqa bir qator oliy ta'lim muassasalarida sinxron tarjima nazariyasini o'qitish yo'lga qo'yildi.

Vizual tarjima:

Vizual tarjima qilish sinxron tarjimaga yaqinroqdir.

Matn ham og'zaki, ham yozma ravishda talabalarga taqdim qilinadi. Bunday hollarda talabalar nutqning yozma nusxasini tayyorlashda 5, 10 daqiqa vaqtlari bo'ladi. Ushbu tayyorgarlikka asoslanib, so'ng ular xuddi naushniklar orqali o'qib berilayotgandek ko'rib tarjima qilishlarini so'rashadi. Talabalar so'zlovchini tinglashlari shartligi aytiladi va bu ko'rib tarjima qilish mashqi bo'lsa ham, matnni shunchaki o'qishlari so'raladi.

Vizual tarjima qilish shunday qurolki, ushbu bo'limda tarjimonda matndagi texnik terminlarni ko'rib chiqish olish o'zi mutaxassis bo'lmagan sohadagi terminlarni tajriba olishga tayyorgarlik ko'rish imkonini bo'ladi. Qiyin so'zlarning talaffuzini ko'rib olish mumkin. Bundan tashqari vizual tarjima qilish qiyin matnlar mazmunini konferensiya boshlanguncha qadar ko'rish imkonini beradi.

Sinxron tarjimada vizual tarjima qilish uning eng yuqori pog'onasida qo'llaniladi. Har doim tajjimon eshitishi kerak bo'lgan ishning nusxasini ustida ishlaydi. Biroq, vizual tarjima qilishga qo'shimcha sifatida tarjimon so'zlovchi yozma matnda tashqariga chiqmayotganiga amin bo'lishi kerak. Tarjimaning bosh shaklida, tarjimon ilmiy va texnik majlislarda qiyinchiliklarga duch keladi. Hayratli tomoni shundaki, ko'pchilik tarjimonlar imkoniyat bo'lgan vaqtda yozma matnni juda aniqlik bilan kuzatishni tanlashadi. Faqatgina eng yaxshi tarjimonlar aynan shu qiyinchiliklar ustida yozma matnsiz jonli tarjima qiloladilar.

Yozma material yuqori tezlikda o'qilgan bo'lsa ham tarjimon o'rta hisobda bir qancha vazifalarni bajarishi kerak:

1. So'zlovchining gaplarini yaxshi anglaganini tekshirishi;
2. Axborotni yakunlash;
3. Tarjima qilish mumkin bo'lgan ko'p axborotni ko'rib tarjima qilish.

So'zma - so'z tarjima hech qachon qabul qilinishi kerak emas, talaba matnni bir necha martadan tahlil qilishi lozim. Ravon va mantiqiy ifodalanmagan har qanday mazmuniy

birikma agar lozim bo'lsa, matnga bog'lanmagan holda talaba tarjimonidan qaytarilishi lozim. O'qituvchilar talabalar matnga qaramay javob berishlarini foydali deyishadi, balkim to'liq ingliz tilidagi talabachining rolini ijro etishlari lozim. Vizual tarjima qilish har qanday tarjimonni o'qitish jarayonining asosiy qismidir. Vizual tarjima qilish bo'lajak tarjimonlarni kelajakdagi kasblariga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Bu ularning tezlik va dalil tarjima qilish mahoratlarini oshiradi. Tarjimon vizual qancha tez tarjima qilsa, uning tarjimasi shuncha ta'sirchan bo'ladi.

O'quv - metodik topshiriqlar:

1. Tarjima turlari necha qismga bo'lib o'rganiladi?
2. Tarjima jarayonlarini insoniyat sivilizatsiyasiga nisbatan o'zgarishini qanday ko'rishimiz mumkin?
3. Sinxron tarjimaning yurtimizdagi o'rnini borasidagi fikr va mulohazalaringizni bayon qiling.
4. Vizual tarjimaning asosiy yo'nalishi qanday?
5. Sinxron va vizual tarjimaning o'zaro bir - biridan farqi haqida qisqacha ma'lumot bering.

5-mavzu: Yozma tarjima turlari.

Reja:

1. Yozma tarjimaning yuzaga kelish tarixi
2. Yozma va og'zaki tarjima turlari
3. Tarjima jarayonini transformatsiya qilish

Yozma-yozma tarjima uzoq tarixga ega. U eng ko'p qo'llaniladigan tarjima turlaridan bo'lib, minglab badiiy asarlar, millionlab hujjatlar va undan ham ko'proq ilmiy texnikaviy adabiyotlarning tarjimasi hisoblanadi. Bu tarjimani amalga oshirish unchalik murakkab extralingvistik shart-sharoitlarni talab qilmaydi, chunki tarjimonga to'laqonli tarjima berish uchun barcha imkoniyatlar berilgan, yetarli vaqt, istalgan sharoit, qayta-qayta tarjima qilish, kim bilandir kengashish maslahatlashish kabi katta imkoniyatlar berilgan.

Yozma-og'zaki tarjima yozma matnning og'zaki tarjimasiga demakdir. Bunday tarjima hayotda ko'p uchraydi. Bunday telegrammalar, yo'l-yo'riqlar, xatlar, hujjatlar va hokazolarning tarjimalari misol bo'lishi mumkin.

Og'zaki-yozma tarjima ham tez-tez qo'llanib turiladi. Masalan, qandaydir og'zaki nutqning yozma tarjimasi, og'zaki suhbatning (muloqotning) yozma tarjimasi misol bo'la oladi. Har bir tarjima turi o'ziga xos ahamiyatga ega.

Yozma matn qadimda paydo bo'lgan. Uni kecha yoki yuz yil oldin ham yozish mumkin edi. Har qanday holatda ham yozib qolishi va tarjima orqali muammodan chiqishi mumkin edi. Biroq og'zaki nutqning tarjimasi shu yerning o'zida amalga oshadi va xatolik va noaniqliklarga limmo-lim bo'lishi ham mumkin.

Yozma va og'zaki tarjima ikkita alohida atama bo'lib ular bir-biridan farqlidir. Har ikkala tur ham umuman boshqa boshqa qobiliyat va malakani talab qiladi. Ular uchun umumiy bo'lgan narsa asl matn mazmuninig tarjima tilida berilishidir.

Yozma tarjimon tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi va yozma matn shakllantira olishi lozim. Yana bir muhim element, yozma tarjima yakka holda, og'zaki tarjima esa har doim guruhda amalga oshiriladi.

Yozma tarjimada statik ma'lumotlar tarjima qilinishi mumkin. Bungacha unga muharrirlar ishlov berishadi. Ammo sizning tarjimangiz davomida u o'zgaradi. Unda aniq muqaddima va yakun mavjud. Agarda og'zaki tarjima nemis tilida qilinayotgan bo'lsa, aytilayotgan fikr nima bilan tugashini yoki qanday tugashini bilmaslik mumkin. Bunda faqat tarjima boshlanadi, qanday tugashini topib olishga to'g'ri keladi. Og'zaki nutq doimo rivojlanadi va o'zgarib boradi.

Yozilgan matnni bir nechta marta ko'rish mumkin, qolaversa barchasini hotirada saqlashni hojati yo'q. Og'zaki nutq doimiy ravishda oldinga harakat qiladi. Shuning uchun uning ketidan yetib olish uchun, hech bo'lmasa uning yo'lini aniq bilish, ya'ni aytilgan masalaning asosiy qirralarini eslab qolish kerak. Ko'p hollarda buni uddasidan chiqish juda mushkul.

Og'zaki tarjimon faqat so'zlar bilan ishlaydi. Uning ishi demak, so'z, imo-ishora, jest va ohang bilan bo'ladi. Bularning barchasini u tarjima jarayonida yaxshi uqib olishi kerak. U xorijiy mehmon yoki hamkor nimani xohlagan bo'lsa, shuni maksimal darajada aniq yetkazshi kerak.

Og'zaki tarjimonga ob'ektiv yondashish ancha oson bo'ladi. Og'zaki tarjima da mutaxassisga nutq amalga oshiralayotgan muhit ta'sir qiladi. Ular notiq va boshqa qatnashuvchilar qay tarzda so'zga murojaat qilishlarini ko'rib his qiladilar.

Har qanday so'zlashgich yoki lug'at yozma matnni tarjima qilishga yordam beradi. Og'zaki fikrni darhol tarjima qilish talab qilinadi. Yordamchi materiallardan foydalanish imkoniyati bo'lmaydi.

Og'zaki tarjimon qandaydir hajmda ma'lumotni eshitadi va uni mazmunini imkon qadar tez xorijiy tilga tarjima qilishi kerak bo'ladi. Ba'zida aytilgan gapning aniq ekvivalentini tanlab

olish mumkin bo'lsa, ko'p hollarda esa transformatsiya qilish to'g'ri keladi. Ya'ni bunda bir oz soddaroq va vaziyatga mos keladigan shaklda berish afzal ko'riladi. Og'zaki tarjima bo'yicha mutaxassis xorijlik nutqini o'g'irishda o'zining subyektiv izini qoldiradi. Tarjimon matni interpretatsiyasiga uning ta'lim olganlik darajasi, tarbiyasi, madaniyatligi va odatlari ta'sir qiladi.

Tarjima jarayonini biz yuqorida biror tildagi matnning ikkinchi bir tildagi matnga transformatsiya qilish, o'zgartirish deb ta'riflab o'tdik. Demak, tarjima jarayonida albatta ikki matn (A.I.Smirnitskiy bo'yicha "nutq asarlari") mavjud bo'ladi. Bulardan bittasi boshlang'ich, dastlabki matn hisoblanadi va ikkinchi matnga bog'liq bo'lmagan holda yaratiladi. Ikkinchi matn esa birinchi matn asosida ma'lum uslubiy-lisoniy operatsiyalar, ishlar bajarish yo'li bilan vujudga keladi.

Birinchi matn asl matn yoki original nusxa deb aytilsa, ikkinchi matn tarjima matni yoki tarjima deb ataladi ("tarjima so'zining birinchi ma'nosida"). Asl matn qaysi tilda aytilgan yoki yozilgan bo'lsa, o'sha tilni asl matn tili (qisqartirib AMT) deb ataymiz. Tarjima matni qaysi tilda yaratilgan bo'lsa, o'sha tilga tarjima tili (qisqartirib TT) deb nom qo'yamiz.

Tarjima mohiyatini aniqlashda quyidagi savolga javob berish o'ta muhim hisoblanadi: nimaga asoslanib biz tarjima matnini asl matnga adekvat tarzda ekvivalent, har jihatdan teng yoki muqobil deb o'tamiz? Masalan, nima uchun "Mein Bruder akam Myunxenda yashaydi" gapi nemischa "Mein Bruder lebt in Munchen" gapining tarjimasi deb ayta olamiz, "Men universitetda o'qiyman" gapi yuqorida keltirilgan nemischa gapning tarjimasi deb ayta olmaymiz?

Ma'lumki, tarjima jarayonida biror tildagi matnni ikkinchi tildagi xohlagan matn bilan almashtirib bo'lmaydi. Tarjima jarayoni ixtiyoriy ravishda emas, balki ma'lum bir qoidalar asosida sodir bo'ladi. Agar ushbu qoidalarga rioya qilinmasa, tarjima haqida gapirishga o'rin qolmaydi.

Asl matn tili dagi matnni tarjima tilidagi matnga almashtirishda ma'lum bir invariant saqlanib qolishi shart. Ushbu invariantning saqlanib qolish darajasi tarjima matnining asl matnga nisbatan muqobillik yoki adekvatlik darajasini aniqlab beradi. Tarjima jarayonida nima invariant bo'lib saqlanib qoladi? Bu muammoni yechishda quyidagilarni inobatga olish kerak.

Har bir belgining ikki tomoni bo'ladi: shakl va ma'no. Til o'ziga xos belgilar tizimi bo'lganligi sababli til birliklari ham ikki tomonga ega: ham shakl, ham ma'noga. Bu borada tarjima uchun quyidagi fakt hal qiluvchi rol o'ynaydi: turli tillar shakl jihatdan farq qiluvchi, ammo ma'no jihatdan bir xil bo'lgan til birliklariga ega.

Masalan, yuqorida keltirilgan gaplarda nemischa "Bruder" so'zi o'zbekcha "aka" so'zidan shakl jihatidan farq qiladi-yu, ammo ma'no jihatidan unga o'xshash. (Hozircha biz turli tillarga oid bo'lgan birliklarning ma'no jihatdan odatda to'liq emas, balki qisman o'xshash bo'lishlarini inobatga olmayapmiz. Masalan, nemischa "Bruder" so'zi "aka" ma'nosidan tashqari yana "uka" degan ma'noga ham ega. Bunday hodisa, ya'ni turli tillarga mansub birliklarning ma'nolarini qisman o'xshashligi tarjima jarayonini qiyinlashtirsa ham, ammo uning mohiyatini o'zgartirmaydi.)

Shu asosda quyidagini ta'kidlab o'tishimiz mumkin. Nemischa "Bruder" so'zini o'zbekcha "aka" so'zi bilan almashtirganimizda tarjima jarayoni sodir bo'ladi, chunki shakl jihatidan farq qiladigan bu so'zlar ma'no jihatidan o'xshash yoki ekvivalentdir. Aslida esa, minimal matn (nutq asari) sifatida gap sifmat qilishi sababli, tarjima jarayoni albatta kamida bitta gap (bir necha gap) doirasida sodir bo'ladi. Turli tillarga mansub birliklarning ma'nolari bir-birlariga to'g'ri kelmasliklari odatda gapda bartaraf etiladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan misolimizdan kelib chiqqan holda, shuni aytish joizki, tarjimada biz faqatgina nemischa

“Bruder” soʻzini oʻzbekcha “aka” soʻziga, yoki nemischa “lebt” oʻzbekcha “yashaydi” soʻziga almashtirib qoʻymasdan, balki butun nemischa gapni “Mein Bruder lebt in München” oʻzbekcha “Mening akam Myunxenda yashaydi” gapiga almashtiram. Bu oʻrinda “yashaydi” soʻzini “istiqomat qiladi” birikmasiga almashtirish ham mumkin. Har ikki holatda ham gaplar shart jihatidan farqli, maʼno jihatdan esa oʻxshash.

Tayyorgarliksiz tarjima va oldindan tanishilgan tarjima Tayyorgarliksiz tarjima eng qiyin tarjima jarayoni hisoblanadi. Bunda tarjimon oʻz oldida qanday tarjima obyekti turganligini qaysi soha, qanday terminologiya mavjud, tarjima matni kimlarga moʻljallangan, uning hajmi qancha ekanligini bilmaydi. Bu esa albatta tarjimondan oʻziga hos professionallik talab qiladi. Tayyorgarliksiz tarjima ogʻzaki va yozma matn asosida amalga oshirilishi mumkin. Tayyorgarliksiz ogʻzaki tarjima sinxron yoki ketma-ket shaklda amalga oshiriladi. Bu holat har xil mavzudagi xalqaro ilmiy-nazariy anjumanlar, simpoziumlar, uchrashuvlar, kelishuvlar jarayonida kutilmagan holatda tarjimonga zarur tuzatish tugʻilishi oqibatida yuzaga keladi. Bu esa tarjimon uchun oʻziga xos qiyinchiliklar tugʻdirishi mumkin. Yozma tarjima esa turlari yuqori vakolatli organlar tomonidan tezkor bajarilishini talab qilingan hujjatlar, dasturlar, loyihalar, nizomlar va hokozolar asosida amalga oshiriladi. Bunda tarjimon va mazkur masalani tayyorlovchi masʼullar bir joyda (yoki masʼulning xonasida) tezkor tarjima qilishlariga toʻgʻri kelganda, sodir boʻladi.

Oldindan tanishilgan tarjima deyarli barcha yozma tarjima turlarini oʻz ichiga qamrab oladi. Bunda epik, dramatik, lirik va publisistik asarlarning tarjimalari, eʼlonlar, koʻrgazma matnlari, reklama, shiorlar, hikmatli soʻzlar, transportlarning qatnov grafigi, narx-navo va hakoza matnlar tarjimalari nazarda tutiladi. Yozma matnni oldindan tanishib tarjima qilish, avvalambor har-xil, bir tilli, ikki yoki uch-toʻrt tilli lugʻatlardan foydalanish mumkin boʻladi, oʻzaro fikrlashish imkonini beradi, yetarli darajada vaqtga ega boʻlinadi va bularning barchasi

tarjima mazmuninig sifatli chiqishini kafolatlaydi.

Har qanday xorijiy maʼruzachi bilan birgalikda faoliyat olib borayotgan tarjimon tayyorlanish imkoniyatiga ega boʻladi. Bu ham ogʻzaki matnga oldindan tanishilgan tarjima hisoblanishi mumkin. Zero u xorijlik fuqaroning maʼruzasi bilan tanishishi yoki maʼruza matni boʻlmaganda, u bilan bevosita muloqot qilib maʼruza mazmuni, sohasi, terminologiyasi bilan ozmi - koʻpmi tanishish imkoniyatiga ega boʻladi.

Tarjima surʼati, amaliy muammolar va amaliy malakani rivojlantirish. Tarjima surʼati xoh u yozma boʻlsin, xoh u ogʻzaki boʻlsin, uning sifati nuqtai nazaridan ijobiy mazmun kasb qilishini talab qiladi. Tarjima surʼatini oshirish oʻziga hos amaliy muammolarga ega. Bunga lugʻat zahirasiining kambagʻalligi yoki grammatik bilimlarning sustligi asosiy koʻrsatgich emas. Balki tarjimondan bundan ham koʻproq narsani bilish talab qilinadi. Zero, tarjima qila olish bu butun bir fandır. Tarjima tilida fikrlay olamizmi, demak biz shundagina tarjimaning oʻziga hos nozik jihatlari anglay olamiz.

Nemis va oʻzbek tillari qurilishi va shakllar tizimi bir-biridan tubdan farq qiladi. Shu bois nemis tilidan oʻzbek tiliga yoki oʻzbek tilidan nemis tiliga toʻgʻri tarjima qilish juda murakkab vazifa hisoblanadi. Nemis tilining eng asosiy murakkabliklari bu soʻzlarning koʻp maʼnoliligidir. Koʻpgina oʻzbek konstruksiyalari nemis tili bilan taqqoslaganda juda noqulay.

Nemis tilida „Ich bin guter Dinge“ - „Mening kayfiyatim yaxshi“ degan maʼnoni anglatadi. Biroq „das Ding“ soʻzining bir qancha maʼnosi boʻlsa ham, uning kayfiyat maʼnosi haqida maʼlumot bugungi kun zamonaviy lugʻatlarida keltirilmaydi. Demak soʻzning maʼnosi “gut” soʻzi bilan birikib turgʻun ibora shakliga ega boʻlgan. Qolaversa bu yerda „sein“ bogʻlama feʼli „gutes Ding“ yoki „gute Dinge“ birlik va koʻplik bosh kelishikni qoʻllanilishini talab qiladi. „Guter Dinge“ soʻz birikmasi koʻplik genitiv (qaratqich) kelishigida kelayapti. Soʻzma soʻz tarjima qilinsa „Men yaxshi narsalarning“ tarzidagi tugal

ma'no anglatmaydigan o'ziga xos bir shakl paydo bo'ladi. An shu ma'noda tarjima qilish yoki qilinish uchun avvalambor asliyatda nima haqida gap botayapti, so'zning ma'nolari qanday va qaysi ma'no maqbul ekanligi yoki kontekstda qanday ma'no anglashilayapti, bundan tashqari muallifning muddaosi qanday, tarjima matnida so'zlovchining nuqtai nazari salbiymi yoki ijobiymi, uning ohangi va intonatsiyasi qanday degan savollarga javob bera olish kerak bo'ladi. Bu esa tarjimondan o' o'rnida amaliy malakani rivojlantirish, ya'ni tarjima tajribasini oshirish, o'zi ustida ko'proq ishlash, asliyat matnini eng mayda detaligacha o'rganib chiqishni talab qiladi.

O'quv - metodik topshiriqlar:

1. Yozma tarjimaning asosiy prinsiplariga to'xtalib o'ting.
2. Yozma - og'zaki tarjimaga qanday tarjima ishlarini misol qilib olish mumkin?
3. Tarjima sur'ati amaliy muommolarini qay yo'sinda hal qilishi mumkin?
4. Tarjima jarayonini transformatsiya qilishni ta'riflab bering.
5. Nimaga asoslangan tarzda tarjima matnini asl matnga adekvat tarzidagi ekvivalent deb o'rganamiz?

6-mavzu: Og'zaki tarjima turlari.

Reja:

1. Og'zaki tarjimaning o'ziga xos xususiyatlari
2. Vizual tarjimaning boshqa tarjima turlaridan farqi
3. So'zma-so'z tarjimada qanday imkoniyatlar

Ba'zi tarjimonlar vizual tarjima qilishdan oldin yozma ravishda rejalashtiradigan matnni ko'rib chiqadi. Kabinada, matnni ko'rib tarjima qilish, yozma matnni o'qishga o'xshab emas, balki og'zaki nutq singari eshitilishi kerak. Vizual tarjima qilish bo'lajak tarjimonlarni tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Vizual tarjima qilish bir tilda yozilgan matnni boshqa tilga o'girib o'qishga aytiladi. Og'zaki va voziladigan axborotni ko'rish jarayoni qamrab olinganligi sababli ko'rib tarjima qilishni yozma tarjimaning maxsus turi, shuningdek, og'zaki tarjimaning o'ziga xos varianti sifatida qabul qilish mumkin. Vizual tarjima qilish ehtiyotkorlik bilan bajarilishi kerak. Vizual tarjima qilish sinxron tarjimaga yaqinroqdir. Matn ham og'zaki, ham yozma ravishda talabalarga taqdim qilinadi. Bunday hollarda talabalarda nutqning yozma nusxasini tayyorlashda 5,10 daqiqa vaqtlari bo'ladi. Ushbu tayyorgarlikka asoslanib, so'ng ular xuddi naushniklar orqali o'qib berilayotgandek ko'rib tarjima qilishlarini so'rashadi. Talabalar so'zlovchini tinglashlari shartligi aytiladi va bu ko'rib tarjima qilish mashqi bo'lsa ham, matnni shunchaki o'qishlari so'raladi. Vizual tarjima qilish shunday qurolki, ushbu bo'limda tarjimonda matndagi texnik terminlarni ko'rib chiqish olish va o'zi mutaxassis bo'lmagan sohadagi terminlarni tarjima qila olishga tayyorgarlik ko'rish imkoni bo'ladi. Qiyin so'zlarning talaffuzini ko'rib olish mumkin. Bundan tashqari vizual tarjima qilish qiyin matnlar mazmunini konferensiya boshlangunga qadar ko'rish imkonini beradi. Sinxron tarjimada vizual tarjima qilish uning eng yuqori pog'onasida qo'llaniladi. Har doim tajimon eshitishi kerak

bo'lgan ishning nushasini ustida ishlaydi. Biroq, vizual tarjima qilishga qo'shimcha sifatida tarjimon so'zlovchi yozma matnda tashqariga chiqmayotganiga amin bo'lishi kerak. Tarjimaning barcha shakllari, tarjimon ilmiy va texnik majlislarda qiyinchiliklarga duch keladi. Hayratli tomoni shundaki, ko'pchilik tarjimonlar imkoniyat bo'lgan vaqtda yozma matnni juda aniqlik bilan kuzatishni tanlashadi. Faqatgina eng yaxshi tarjimonlar aynan shu qiyinchiliklar ustida yozma matnsiz jonli tarjima qiloladilar. Yozma material yuqori tezlikda o'qilgan bo'lsa ham, tarjimon o'rta hisobda bir qancha vazifalarni bajarishi kerak:

1. So'zlovchining gaplarini yaxshi anglaganini tekshirishi;
2. Axborotni yakunlash;
3. Tarjima qilish mumkin bo'lgan ko'p axborotni ko'rib tarjima qilish.

So'zma-so'z tarjima hech qachon qabul qilinishi kerak emas, talaba matnni bir necha martadan tahlil qilishi lozim. Ravon va mantiqiy ifodalanmagan har qanday mazmunni birikma agar lozim bo'lsa, matnga bog'lanmagan holda talaba tomonidan qaytarilishi lozim. O'qituvchilar talabalar matnga qaramay javob berishlarini foydali deyishadi, balkim to'liq tinglovchining rolini ijro etishlari lozim. Vizual tarjima qilish har qanday tarjimonni o'qitish jarayonining asosiy qismidir. Vizual tarjima qilish bo'lajak tarjimonlarni kelajakdagi kasblariga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Bu ularning tezlik va jadal tarjima qilish mahoratlarini oshiradi. Tarjimon vizual qancha tez tarjima qilsa, uning tarjimasida shuncha ta'sirchan bo'ladi.

O'quv – metodik topshiriqlar:

1. Vizual tarjimaning boshqa tarjima turlaridan farqi nimada?
2. So'zma-so'z tarjimada qanday imkoniyatlar mavjud?
3. Tarjima jarayonida tarjimon qaysi vazifalarni o'z zimmasiga oladi?

7-mavzu: Tarjima sohasidagi yondashuvlar.

Reja:

1. Adekvat tarjima va uning xususiyatlari
2. Bevosita va bilvosita tarjima
3. Avtomatik tarjima

Adekvat tarjima – har jihatdan mos, aynan teng, asl nusxaga mazmun va shakl jihatdan muvofiq tarjima (Lotincha "adekvatus" – "tenglashtirilgan, teng, muvofiq, aynan"). "Erkin tarjima bu asl nusxaning g'oyaviy mazmuni va badiiy xususiyatlarini o'zgartiruvchi, uni har jihatdan boshqa izga solib yuboruvchi tarjima prinsipidir. Bundan tarjimalarda muallif uslubi emas, balki tarjimon uslubi ustun turadi. Erkin tarjimaning ham turli xillari mavjud. Sharq klassik she'riy tarjimasiga kelganda, erkin tarjima shunda ko'rinadiki, bu usulni qo'llagan tarjimon aksariyat hollarda, asosiy mavzu va g'oyadan chetga chiqmagan holda, muallifning bayon tarzida she'riy san'atlardan foydalanish, ifoda va tasvirlarini chetlab o'tib, ular o'rniga o'zi ijod qilgan san'atlar va ifodalarni taqdim etadi. Bunday tarjimon asl nusxa panohida o'z she'riyini taqdim etgan, o'zining ijodiy manerasini ko'rsatgan bo'ladi. Masalan, Sayfi Saroyi tarjimasidagi Sa'diy Sheroziyning "Guliston", Qutb Norazmiy tarjimasidagi Nizomiy Ganjaviyning "Xusrav va Shirin" asarlari. "Kalila va Dimna" tarjimalari ham. Ijodiy tarjima esa asar g'oyasi va badiiy o'ziga xosligini o'zgartirishni emas, balki unga ijodiy munosabatda bo'lish orqali mazmuni, intonatsiyasi, uslubini yangi tilda tiklash demakdir. Ijodiy tarjima so'zma-so'z tarjimaga ham, o'zgartiruvchi erkin tarjimaga ham zid tushunchadir. Ijodiy tarjima orqali kitobxonga manzur bo'ladigan so'z san'ati namunasi hosil qilinadi. Shuning uchun badiiy adekvat tarjima ijodiy tarjima hisoblanib, bu asl nusxaga sodiq qolishni" taqozo etadi. Masalan, A.Oripov tarjimasidagi Qaysin Qulievning "Hayrat" she'ri. E.Vohidov

tarjimasidagi Sergey Yesenin she'rlari. Xurshidning Hofizda qilgan tarjimalari. "Guliston" besh marta tarjima qilingan (Say Saroyi, Ogahiy, Mulla Murodxo'ja, Ahmad Jalil, G'afur G'ulom, Sh.Shomuhamedov – R.Komilov). Ularni qiyosiy o'rganish shun ko'rsatadiki, "tarjimaga bo'lgan talab zamonlar o'tishi bilan o'zgarib turgan. Agar Abu Rayhon Beruniy erkin tarjima tanqid qilib, original ruhini boshqa tilda aniq qayta yaratish talab qilsa, Muhammad Temur erkin tarjima tarafdori sifatida maydonga chiqadi. Ogahiy ijodiy erkin tarjima prinsipiga amal qilsa, Murodxo'ja tarixiy-lingvistik aniqlikka intilib, so'zma-so'z tarjima aqoidlariga sodiq bo'lib qoladi". So'zma-so'z va hijjaviy tarjima. Ya.I.Resker "doslovniy" va "bukvalniy" terminlarining ma'nolari boshqa-boshqa bo'lib, ularni bir-biri bilan aralashtirish yaramasligini alohida qayd etgan edi: "... so'zma-so'z va hijjalab tarjima qilish degan ikki xil tushunchani aralashtirmaslik kerak. Hijjalab tarjima qilish – turli-tuman tillarning so'zlari o'rtasidagi nuqul tashqi, shakliy o'xshashlikka asoslangan mexanik tarjimadir. Bu tarjima sohasidagi formalizmdir. So'zma-so'z tarjima esa "so'zni-so'z" bilan, hech narsani almashtirmasdan yoki qayta guruhlashtirmasdan qilingan tarjimadir. Hijjalab tarjima qilishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. So'zma-so'z tarjima esa muayyan hollarda qonuniy hodisadir". Demak, doslovniy perevod – aniq tarjima, bukvalniy perevod – hijjalab tarjima qilish So'zma-so'z tarjimaga misollar:

1. Terpi, kazak, atamanom budesh. – Sabr qil, kazak, ataman bo'lasan. (Erkin tarjimasi: Sabr qilsang, g'o'rada halvo bitar).
2. Yesli vrag ne sdayotsya, yego unichtojayut. – Agar dushman taslim bo'lmasa, uni yanchib tashlaydilar.
3. Duraku zakon ne pisan. – Ahmoqqa qonun bitilmagan.
4. Zo'ri behuda miyon meshikanad. – Behuda kuchanish belni sindiradi.
5. Holva degan bilan og'iz chuchimaydi. – "Xalva" skolko ne govori, vo rtu sladko ne stanet. Hijjaviy tarjimaga misollar: 1. "krestyanin krepko osel – dehqon mustahkam eshak (dehqon mustahkam o'rnashdi) 2. "park zanesen snegom" – "parkni qor bosdi" (par

qor bilan olinib ketildi) 3. uglovatiy (qo'pol, dag'al) – burchakli 4. barxatniy golos (Mayin ovoz) – duxoba ovoz 5. golubie glaza (ko'k ko'z) – kaptar ko'zlar 6. krasa i gordost (ko'rk va savlat) – ho'yoq va faxr 7. uchenaya sobaka (o'rgatilgan it) – olim it 8. ligar-bag'rim kabob bo'ldi (Mashrab). – Serdse stalo shashlikom. 9. U qizilmag'izdan kelgan edi (A.Qodiriy. "Obid ketmon"). – On prelexal iz Kizilmagiza. 10. Perevesti dux (Kafka). – Ruhiyatni tarjima qilmoq (V.Fayzullo tarjimasi). Akram Qodiriyning "Tarjimon" nomli bir pardali komediyasi. Mulla Mirgarang yozgan ariza: "Glavni bosh paxtaqo'mg'a. Maya jilizni daro'ga yuk taskayt. Adin polovina luna bo'ladi. Xotinim uyda pitir delayt. Shunga denga dayut." "Bagdatskiy vor" – "Bag'dod ham bor" "Va glavniy roli" – ya'ni aptamibilini ro'lini burab turadigan odam, "Miravuy bayavik – "Meros boyvachchasi". Aniq tarjima so'zma-so'z aniqlikka intilish. Buning yorqin misoli V.Bryusov tarjimasidagi Vergiliyning "Eneida" asari. U asarni olti-etti marta tarjima qilgan. Har gal yangi prinsip qo'llagan: 1) erkin tarjima yoki "qayta hikoya qilib berish" usuli; 2) chin ma'nodagi "she'riy tarjima" (aniq, ammo bukvalistik belgilardan holi); 3) sof bukvalizm. Taglama – asl nusxa tilini bilmaydigan tarjimon uchun maxsus tayyorlab beriladigan so'zma-so'z, jumlamajumla, satрма-satr (she'riy tarjimada) aynan tarjima, tahtullafz, podstrochnik. Sovet davrida rus tarjimonlari o'zbek adabiyoti namunalarini asosan taglamadan tarjima qilganlar (L. Pankovskiy, V.Derjavin, S.Lipkin, K.Simonov, M.Sale. "Farhod va Shirin"ning ayrim boblarini nemis tiliga o'g'irgan Alfred Kurella ham taglamadan foydalangan). Tabdil. "Klassik adabiyot asarlarining lug'atida, jumladan, Alisher Navoiy asarlari lug'atida ham shu darajada katta tafovut borki, bu asarlarni to'la tushunib yetish uchun ularni to'la ma'noda tarjima qilinmasa ham, loaqal, "yarim tarjima" qilishga zarurat tug'iladiki, buning nomini tabdil qilish deyiladi". Masalan, Alisher Navoiy qalamiga mansub "Xamsa" dostonlari, "Lison ut-tayr" dostoni nasriy bayon qilingan bo'lsa, "Mahbub ul-qulub"

hozirgi o'zbek tiliga tabdil qilingan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarlari ham nasriy tarjimada o'qilayapti. Bu asarlarning asl nusxasini faqat mutaxassislar o'kiydi. Adaptatsiya – soddalashtirish moslashtirish. Chunonchi, Xomushiy Firdavsiyning "Shohnoma" N.Komilov Atorning "Ilohiynoma" sini xalq saviyasi va o'quvchilar darajasini hisobga olib, nasriy tarjima qilganlar Menimcha, "Shohnoma" tarjima qilinadigan bo'lsa, hozir ham uni soddalashtirib, nasriy tarjima qilish kerak. Chunki 120 000 misralik bu ulkan asarni birov o'qimaydi. Mualliflashtirilgan tarjima – Muallifning o'zi tomonidan (Ayniy asarlari) yoki muallif va tarjimon hamkorligida (P.Qodirov va Yu.Surovsev) amalga oshirilgan tarjimalar. Ch.Aytmatov qissalari ham. Qayta tarjima. Asliyat barcha zamonlar va o'quvchilar uchun o'zgarmas bo'lib qolaveradi. Lekin har bir davr, har bir avlod yangi zamonaviy tarjimaga ehtiyoj sezadi. Aytaylik, Sa'diy "Guliston"ining Sayfi Saroyi va Ogahiy tarjimalari lisoniy jihatdan bugungi o'quvchi talabini qondirolmaydi. Shuning uchun XX asrda uning yangi tarjimasi paydo bo'ldi. Chunki bu tarjimalarning o'zi tarjimaga muhtoj. Umuman, qayta tarjimaga quyidagi omillar sabab bo'ladi: – avvalgi tarjimaning til jihatdan eskirganligi; – badiiy jihatdan bo'sh tarjima qilinganligi; – vositachi til orqali o'girilganligi; – ijodiy bellashuv istagi. Masalan, Braziliya adibi Paulo Koelening "Alkimyogar" asarini bir vaqtning o'zida uch tarjimon – Ozod Sharafiddinov, Ahmad Otaboyev, Aziz Saidlar tarjima qilishdi. Bu, bir tomondan, jahon adabiyotida voqea bo'lgan asarga davr talabi bo'lsa, ikkinchidan, mohir adib "panjasiga panja urish", o'z iste'dod kuchini sinab ko'rish. Jamol Kamol ilgari rus tilidan o'girilgan Shekspir fojialarini bevosita ingliz tilidan tarjima qildi. Yoki Bayronning "Don Juan" asarini Abdulla Sher ingliz, Sulaymon Rahmon rus tilidan tarjima qildilar. Shavkat Rahmon otashnafas ispan shoiri Garsia Lorka she'rlarini dastlab rus tilidan tarjima qilgan edi.

Keyin ispan tilini o'rganib, bevosita asl nusxadan o'zbekchalashtirdi. Oybek tarjimasidagi A.S.Pushkinning "Evgeniy Onegin" she'riy romani asliyatning mazmunini talato'kis aks ettirgan bo'lsa-da, shaklan buyuk rus shoiri asariga qoyimmaqom emas, badiiy jihatdan ham uncha baland emas edi. Shuni hisobga olib, oradan yarim asr o'tib, Mirzo Kenjabek uni qayta tarjima qildi. "Vorisiylik – bir tarjimadan ikkinchisiga meros bo'lib o'tadigan xususiyatlar... bir asarning dastlabki tarjimasida erishilgan yutuqlar, asliyat ruhini qayta tiklash uchun topilgan ayrim usullar keyingi, ta'bir joiz bo'lsa, musobaqadosh tarjimon tarafidan ham istifoda etilishi mumkin. Chunki o'sha narsaning shu tilda bundan ortiq muqobili bo'lmasligi ham mumkin-da". "Evgeniy Onegin"ning Oybek va M.Kenjabek tarjimasi. Pushkin va Lermontov she'rlari tarjimalari. Asarni ilk bor tarjima qilgan tarjimon oldida murakkabliklar bilan birga, imkoniyatlar ham bo'ladi – qanday soddasa shunday, ko'rinib turgan ma'nolari bilan tarjima qiladi. Keyingi tarjimon esa o'xshab qolmasligi uchun atay boshqa so'zlar, o'zgacha ifodalar izlaydi. Umar Xayyom, Jaloliddin Rumi, Pahlavon Mahmud ruboiylari tarjimasida biz ham shu muammoga duch keldik. Qaysi tildan o'girilishiga qarab ham tarjima ikkiga bo'linadi: – bevosita tarjima (asl nusxa tilidan tarjima); – bilvosita tarjima (vositachi tildan tarjima);

AVTOMATIK TARJIMA

Avtomatik tarjima faqat bir ma'noli so'zlar va bir xil grammatik tuzilishga ega tillardan tarjimada muvaffaqiyat keltirishi mumkin. Aksincha, u so'zlarni o'z o'rnida tarjima qilib qo'ya qoladi – keyin ular asosida qayta gap tuzish kerak bo'ladi. Bu ikkinchi ish bo'ladi. Badiiy bo'yoqqa ega matnlarni esa hech qachon avtomatik tarjima qilib bo'lmaydi. Chunki badiiy matnda so'zlar ko'pincha o'z ma'nosida kelmaydi, yoki bir necha ma'noga ega bo'ladi. "Odryaxlevshis, vosklisatelniy znak stanovitsya voprositelnim". "Buket v blagorodnom vine"

– “Olijanob vinodagi guldasta” – “Sof sharob ta’mi”. “Sol sol zemli” – “Er tuzining tuzi” – “ona zaminimizning mag’z-mag’zi” – “jamiyat gullarining guli” – “el-yurt guli”. Georgiy Markov. “Sol zemli” – “Er mag’zi”.

ANTONIMIK TARJIMA

Shakli bir-biriga zid, ammo ma’nolari monand bo’lgan birikmalar antonimik birikmalardir. Masalan, rus tilida “nima bo’lsa, shu bo’lsin”, “mening parvoyimga kelmaydi” degan ma’noda xot trava ne rasti degan frazeologik butunlik ishlatiladi. Buni “Menga desa, o’t o’smasin” deb tarjima qilsa, o’zbekchada qoyim maqom chiqmaydi. Shuning uchun “Menga desa, g’ovlab ketsin!” deb o’giriladi. Odnoy rukoy v ladoshi ne xlopesh. – Yak dast besado ast. Qars ikki qo’ldan chiqadi. – Qars bir qo’ldan chiqmaydi.

TARJIMADA “SOXTA EKVIVALENT” TUSHUNCHASI

Tarjimashunoslikda shaklan o’xshagani bilan ma’nolari bir-biridan jiddiy farq qiladigan so’zlar soxta ekvivalentlar deb qabul qilingan. Masalan, “akademik” so’zi nemis tilida “oliy ma’lumotli kishi”, “student”, “oliy maktab o’qituvchisi” va goho “akademik” ma’nolarini anglatga, rus va o’zbek tillarida asosan “Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zosi” ma’nosida keladi. Yoki “dramaturg” nemis tilida “rejissyor”, “teatr repertuarining mudiri” ma’nolarida kelsa, bizda “dramatik asar muallifi” ma’nosida keladi. Taniqli tarjimashunos A.V.Fyodorov turli tillarda faqat ayrim so’zlarninggina fonetik jihatdan o’xshashligini soxta ekvivalent deb olgan bo’lsa, G.Salomov bu terminni tuzilishi jihatidan bir-biriga o’xshash, ammo ma’nosi jihatidan bir-biridan jiddiy tafovut qiladigan, ba’zida bir-biriga zid bo’lgan frazeologik iboralarga nisbatan qo’llaydi. Ko’r hassasini bir marta yo’qotadi. – Sapyor oshibaetsya odin raz. Onasini Uchqo’rg’ondan ko’rsatmoq. – Pokazat kuzkinu mat.

O’quv – metodik topshiriqlar:

1. Qanday tarjima turlari mavjud?
2. Qanday tarjima xillarini bilasiz?
3. Bevosita va bilvosita tarjima nima?
4. Antonimik tarjimaga misol keltiring.
5. Avtomatik tarjima deganda nimani tushunasiz?
6. Soxta ekvivalent nima?

8-mavzu: Tarjima jarayonida leksik muammolar va ularning yechimi.

Reja:

1. Tarjimada leksik birliklar
2. Tarjimada kontekstning ahamiyati
3. Tarjimada leksik muammolarning yuzaga kelishi

Leksik birlik tarjimasi haqida so'z yuritishdan oldin leksik birlik tushunchasi nimani ifodalashini aniqlab olish lozim. Leksik birlik deganda aksariyat hollarda so'z tushuniladi. Leksik birlikni bunday tushunish leksikologik nuqtai nazardan olganda to'g'ridir. Biroq leksik birlik tarjima nuqtai nazaridan olganda yuqoridagidek tushunganda o'zini oqlamaydi. Leksik birlikni tarjima nuqtai nazaridan tushuntirib berish tarjima birligi tushunchasini hal etish bilan bevosita bog'liq. L.S.Barxudarovning fikriga ko'ra, tilda mavjud bo'lgan barcha birliklar, ya'ni fonema, morfema, so'z, so'z birikmasi hamda gap tarjima birligi bo'lishi mumkin. Stepanov esa tarjima birligi deb freymlarni (so'z va gap tuzilmasini) olish mumkin deb hisoblaydi. Bizningcha, yuqoridagi aytilgan fikrlar ma'lum darajada to'g'ridir, chunki til birliklari bilan tarjima birliklari bir-biriga to'g'ri keladigan holatlar ham bo'ladi, biroq bu narsa doimiy xarakterga ega emas. Shuni hisobga olib, biz tarjima birligini aniqlashdan oldin tarjimada leksik birlik nimaligini bilib olishimiz lozim. Ma'lumki, tarjimada bitta tushunchaga bitta tushunchaning to'g'ri kelish holatlari nisbatan kam uchraydi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, tarjimada so'zga so'z, so'zga so'z birikmasi, so'zga gap to'g'ri kelishi mumkin. Shuning asosida tarjimadagi leksik birlik deganda biz so'z va so'z birikmasini, hatto bitta so'zga to'g'ri keladigan frazeologik birlikni ham tushunishimiz mumkin. Bunda ikki va undan ortiq so'zdan iborat boigan frazeologik birlik bitta so'z ma'nosiga to'g'ri kelgan bo'lishi lozim. Agar asliyatdagi so'zga tarjima tilida

bitta so'z to'g'ri kelsa, u holda ikki tildagi so'z ma'nolari to'liq ekvivalentga ega bo'lgan hisoblanadi. Bunday so'zlar sirasiga atlatda atoqli otlar, geografik va joy nomlari, korxona, tashkilot, muassasa, idora, kema va mehmonxona nomlari va shu kabilar kiradi. Ekvivalentlar aksariyat hollarda monosemantik, ya'ni bitta ma'noga ega bo'lgan so'zlardir.

Tarjima nazariyasida qisman ekvivalentlarning uch turi ham ajratiladi. Bunga sabab bir tilda boshqa tilga to'g'ri keladigan, ekvivalentdan tashqari yana bir nechta so'z ma'nolaridan iborat bo'lishi mumkin. Mazkur ko'p ma'noli so'zning bittasi ekvivalent, qolganlari esa qo'shimcha ma'no sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi ko'p ma'noli "cover" so'zini oladigan bo'lsak, u o'zbek tilidagi "yopmoq", "solmoq", "to'shamoq", "ustiga yozmoq", "bekitib (yopib) qo'ymoq", "yashirmoq" hamda "(matbuotda, maqolada) yoritmoq" ma'nolariga ega. Semantik munosabatning ikkinchi varianti qisman ekvivalent so'zga to'g'ri keladigan ma'noning kesishishi hodisasi. Bu degani ikki tildagi muayyan so'z bir xil ma'no yoki ma'nolarga ega bo'lishi mumkin va shunday bo'lsa ham ayni paytda ularning bir-biriga to'g'ri kelmaydigan ma'nolari ham bo'lishi mumkin. So'zning bu ma'nolari turlicha bo'lishiga asliyat va tarjima tillari turli oilalarga mansub bo'lganligi, o'zlashtirilgan so'zlar boshqa tillardan olingani va boshqa bir qator lingvistik va ekstralingvistik omillar sabab bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi "ball" 1 va "ball"2 omonim so'zlami oladigan bo'lsak, quyidagi farqlarni ko'rish mumkin: "ball" "koptok, to'p" va ball"2 "bal (raqs kechasi)". O'zbek tilida "bal" so'zi faqat raqs manosi ega. Demak, bu so'zlami muqobilini topish kontekstning ahamiyati bitta. Munosabatlarning uchinchi varianti eng murakkab ekvivalentlar turiga kiradi. Gap shundaki, turli xalqlar ob'yektiv reallikni turlicha qabul qiladi va uni tilda turlicha, o'ziga xos ravishda aks ettiradi. Ma'lumki, ingliz tilida "qo'l" tushunchasini ifodalashni bir necha turlari mavjud. O'zbek tilida "qo'l" tushunchasi bitta so'z bilan ifodalanadi. Ingliz

tilida "hand" so'zidan tashqari bu tushunchani tilda ifodalash uchun yuqorida ko'rsatilgan so'z bilan birga ayni paytda "arm" so'zi ham ishlatiladi. Bundan tashqari "hand" so'zi ko'chma ma'noda ham qo'llanadi va ular ham o'zbek tilidagi ko'chma ma'nolarning aksariyatga to'g'ri kelsa ham, farq qiladigan jihatlari ko'p. Xuddi shu narsaning teskarisi o'zbek tilidagi kuzatiladi. O'zbek tilidagi "amma, xola" so'zlariga "aunt", "toga amaki" so'zlariga "uncle", "olcha, gilos" so'zlariga "cherry" kabi bitta so'z to'g'ri keladi. Uchinchi guruhga tegishli so'zlar tarjimasi alohida e'tiborga molik, chunki shu va shu kabi so'zlar tarjima jarayonida muammolar tug'diradi. Masalan, The both married their cousins gapini tarjima qiladigan bo'lsa muammo paydo bo'ladi. Tarjimada muammo tug'diradigan so'z "to marry" fe'li bo'lib, uning ikkita ma'nosi bor. Birinchi ma'nosi "uylan(tir)moq", "turmushga chiq(ar)moq" tarjima uchun ikkinchi muammoli so'z "cousin"dir. Uning o'zbek tilidagi ma'nosi "jiyan". Bu yerda tabiiy savol tug'iladi gap qanday jiyan haqida borayotganini aniqlab olishimiz lozim. Ingliz tilida o'g'il jiyan va qiz jiyan uchun bitta "cousin" so'zi qo'llanadi: o'g'il jiyan (cousin), qiz jiyan (nephew). Yuqorida berilgan gapni tarjima qilish juda mushkul. Buning uchun kontekstni bilish lozim. Kontekstsiz bu gapni o'zbek tiliga tarjima qilib bo'lmaydi. Qisman ekvivalent bo'lgan so'zlar orasidan eng to'g'risini tanlash tarjimaning diqqat markazidagi hal etish zarur bo'lgan dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Bu tarjimada ekvivalent (muqobili) bo'lmagan so'zlar tarjimasiga bevosita aloqadordir. Bu so'zlar sirasiga boshqa davlatlarda qo'llanmaydigan ismlar geografik va joy nomlari hamda xos so'zlar kiradi. Xos so'zlar tarjima nazariyasi adabiyotida realiyalar sifatida qo'llaniladi. Bunga, bir tomondan, ingliz tilidagi lobby, muffin, drugstore, ikkinchi tomondan o'zbek tilidagi tandir, somsa, qiz uzatish uloq va shu kabi tushunchalar kiradi.

O'quv - metodik topshiriqlar:

1. Tarjima jarayonida qanday muammolar yuzaga kelishi mumkin?
2. Tarjimada kontekstning ahamiyati qanday?
3. Yuzaga kelgan leksik muammo qanday yechim topadi?

9-mavzu: Tarjima jarayoni.

Zamonlar osha tarjimaga bo'lgan talablar yangilana boradi. Ammo uning ijodiy xarakteri, qayta yaratish san'ati ekanligi o'zgarmaydi. Tarjimaning ko'lami va taraqqiyoti har bir xalqning ma'rifiy darajasiga bog'liq va, o'z navbatida, u millatning ijtimoiy tafakkuriga samarali ta'sir etadi. "Tarjima" termini bir tildan ikkinchi tilga o'girish jarayonini, shuningdek, tayyor tarjima asarini anglatadi.

Badiiy tarjimaning asosiy xususiyati tilning badiiy vazifasidan kelib chiqadi. Til badiiy asarda estetik hodisa, san'at faktiga aylanadi. Adabiy asar tili — alohida "badiiy voqelik" unsuridir. Tarjimada ana shu obrazli ifodaviy tildagi badiiy ma'noni boshqa tilning obrazli ifodaviy zaminiga o'tkazish, obrazni obraz bilan qayta ifodalash jarayoni yuz beradi. Shuning uchun tarjimon asardagi voqealarning badiiy tafakkur jarayonini yangidan idrok etadi. Zamonaviy tarjima talablariga asosan tarjimon asliyatning san'at asari sifatida shakl va mazmun birligini qayta yaratishi, milliy va individual xususiyatlarini saqlashi lozim. Tarjimon ona tilining rivojlanish darajasi, Tarjimachilik an'analari, tajribalariga suyanadi, turli xil tafovutlarning mavjudligini hisobga oladi. Tarjimonning ijodiy qobiliyati va bilimi uning imkoniyatlarini kengaytiradi. Tarjima jarayonida tarjimon hammavaqt o'z ona tilida fikrlaydi, ona tili unga tahlil quroli, sinov mezon bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Nizomiyning "Xisrav va Shirin" dostonini o'girgan Qutb ("...Nizomiy bolidan holva pishurdim") tarjima nusxa ko'chirish kabi bir ish bo'lmay, ijodiy jarayon ekanini, tarjimon esa boldan holva pishiruvchi mohir yozuvchi bo'lishi kerakligini aytadi. Turli davrlarda muayyan hududdagi adabiy muhit, ayniqsa, maxsus tarjima maktablarining yuzaga kelganligining o'ziyoq uning shakllangan tamoyillari, an'analari bo'lganligini ko'rsatadi.

Hozigi davrda har bir taraqqiy etgan xalq jahondagi yuzlab

salqlar tilidan o'z ona tiliga ilmfan va madaniyatning o'nlab sohalariga oid materiallarni (lirik she'rlar, xabarlar, texnologiya adabiyoti va boshqalar) tarjima qiladi.

Tarjima nusxa ko'chirish emas; tarjimonning estetik ehtiyoji uning ixtiyoridan tashqari, Tarjimada iz qoldiradi. Yozuvchi hayot voqealaridan olgan mushohadalarini tilda badiiy ifodalasa, tarjimon asl matnini yangi til vositasida qayta javdalandiradi.

Tarjima amaliyotini, uning o'ziga xosliklarini, tarixini, tamoyillari, prinsip va krnuniatlarini tarjimashunoslik fani o'rganadi, tarjimonga o'girish uchun asar tanlash, tillararo tafovutlar hamda asliyatga xos boshqa xususiyatlarni, milliyadabiy an'analarni hisobga olgan holda ish tutishda yordam beradi. 20-asr o'zbek adabiyotida tarjimashunoslik maxsus fan tarmog'i sifatida yuzaga keldi va shakllandi. Cho'lpon, Sanjar Siddiq kabi mohir tarjimonlar nafaqat bu davr tarjima adabiyotini, ayni paytda tarjimashunoslik ilmini ham boshlab berganlar, tarjima haqida maqola va risolalar bitganlar.

O'zbekistonda tarjimashunoslik maxsus ilm sifatida o'tgan asrning 2yarmidan shakllandi. Asr oxiriga kelib, bu sohada 10 ga yaqin fan turi, 50 dan ortiq fan nomzodi yetishib chiqdi. Professor J. Sharipov tadqiqotlariga asosan adabiyotimiz tarixida tarjimaning o'rnini ko'rsatishga bag'ishlangan bo'lsa, professor F. Salomov asosan zamonaviy tarjimashunoslik masalalari bilan shug'ullandi, tarjima jarayoniga til hamda adabiy an'analarning ta'sirini ko'rsatib berdi. N. Komilov esa mumtoz janrlarning o'tmish va hozirdagi tarjimalarini tadqiq etdi.

O'zbek tarjimashunosligi asosan adabiy yo'nalishda taraqqiy etgan. Tarjimaning insoniy jihatlar keyinroq — o'zbek tiliga ko'pgina xorijiy tillardan bevosita o'girishga yo'l ochilganidan so'ng rivojlana boshladi.

Taniqli tilshunos Yu. Nayda esa tarjima nazariyasiga to'rt taraflama, ya'ni filologik, lingvistik, kommunikativ va

sotsiosemantik yondashuv lozimligini taklif etadi. Filologik yondashuv zahirida badiiy matn, ya'ni uning strukturaviy va stilistik xususiyatlari mujassam bo'lib, ularning yechimi lingvistik nazariyaga tayanadi. Lingvistik yondashuv zahirida esa ikki tilning leksik va sintaktik holatlariga e'tiborni qaratmoq lozim bo'ladi. Bu holatda tillarning kommunikativ funksiyasiga tayaniladi. Tarjimaga uchinchi yondashuv – sof kommunikativ jarayon hisoblanib, unda asosan ijtimoiy sharoit va kommunikatorlar orasidagi o'zaro muloqot hisobga olinadi. To'rtinchisi, tarjimaga nisbatan sotsiosemiotik yondashuv hisoblanib, unda tarjima qilinayotgan matn uchta asosiy faktorga: belgi, referent (matn) va interpretant (talqin qiluvchi)ga asoslanadi. Bu jarayonda asosan sinonimik belgilar (elementlar) hal etuvchi vazifani bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, keyingi jarayonda har ikki olimning fikri g'arb tilshunoslarining diqqat-e'tiborida bo'ldi. Yuqoridagi barcha talqinlar sof lingvistik xarakterga ega bo'lib, tarjima nazariyasini hozirgi zamon tilshunoslik fani qonuniyatlari bilan vobastaligi va kommunikativ aloqa vositasi funksiyasini bajarishi isbotlandi. Va nihoyat FITning sobiq prezidenti, bolgariyalik tarjimashunos Anna Lilova asliyat va tarjimaning tipologik tahlilini lingvistik nazariya va tarixiy jarayon bilan bog'lab olib borish zarurligini uqtirarkan, u yoki bu matnni o'g'irishda tarjimon shu jihatlarni e'tiborga olmog'i zarur, deya ta'kidlaydi. Olimaning ta'riflashicha, tarjimaning quyidagi uch turi: a) og'zaki tarjima; b) yozma tarjima; v) mashina tarjimasi va uch asosiy janri: a) ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar; b) badiiy adabiyot; v) ilmiy-texnikaviy matnlar tarjimasi mavjuddir. Anna Lilovanning asl nusxa matnining janr va shakl xususiyatlari tarjima mezonini belgilovchi asosiy omil hamdir, degan fikri to'hozirga qadar o'z qimmatini saqlab kelmoqda.

Bu davrda O'zbekistonda ham tarjima nazariyasi va adabiy aloqalar yo'nalishida bir qator ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Masalan, Najmiddin Komilov ("Xorazm tarjima maktabi", 1987),

Qudrat Musayev ("Tarjimaning lingvostilistik muammolari", 1988), Muhammadjon Xolbekov ("O'zbek-fransuz adabiy aloqalari: tarjima, tanqid va idrok tadorigida", 1991), Q. Jo'rayev ("She'riy tarjimalarni xalqaro adabiy va folklor kontekstida qiyosiy o'rganish", 1991) ning doktorlik tadqiqotlari yuzaga keldi. Shuningdek, tarjima muammolariga bag'ishlangan o'nlab nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Ammo o'zbek tarjimashunoslari g'arb olimlarining tarjima nazariyasi xususidagi bahs-munozaralarida ishtirok etolmadilar. Ta'bir jo'z bo'lsa, bu davrga kilib o'zbek tarjimashunoslik ilmi bir qadar orqada qola boshladi.

1993 yil Moskva shahrida bo'lib o'tgan tarjimon va tarjimashunoslarning xalqaro simpoziumida so'zga chiqqan ingliz tilshunosi G. Turi tarjimaning janr xususiyatlariga to'xtalarkan, har qanday vaziyatda "adabiy tarjima" atamasini qo'llash ma'qulligini ta'kidlagan edi. Uning fikricha, tarjima "badiiy" va "nobadiiy" asar matnini o'zga tilda qayta tiklashdan iborat bo'lib, ularning har ikkalasi ham asliyatda adabiy til normalarini o'zida mujassam etajagini unutmaslik kerak. Shunday ekan, ikkala til (asliyat va tarjima)ning adabiy normalaridan bab-barobar foydalanmoq va ularni hisobga olmoq talab etiladi. Demak, tarjima A. Lilova ta'biricha, adabiy til hosilasidir. Yoki, tilshunos R. R. Vitenou ta'biri bilan aytganda, vaqt o'tishi bilan tarjima asari ham "vatan adabiyoti" xazinasidan o'rin olib, asliyatda yaratilgan ilmiy va badiiy kitoblar (janr xususiyatidan qat'i nazar – M. X.) qatorida o'quvchiga o'z "germenevtik" ta'sirini o'tkazishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tarjima va tarjimashunoslik ilmi o'tgan XX asrda keng taraqqiy etdi, umumfilologik fan tarzida e'tirof qilindi. Uzoq davom etgan bahs-munozaralardan keyin tarjima nazariyasining lingvistik tamoyillari peshqadamlikni qo'lga olgan bo'lsa-da, XXI asr bo'sag'asida nazariya birmuncha tanazzulga yuz tutib, amaliyotdan ortda qola boshladi. Bu fikrni bevosita o'zbek tarjimashunosligi xususida ham aytish mumkin.

Sababi, so'nggi o'n-o'n besh yil ichida tarjima nazariyasi muammolariga bag'ishlangan yirik ilmiy tadqiqotlar yaratilmadi hisob. Yosh olimlar tomonidan himoya qilinayotgan nomzodlik dissertatsiyalari jahon tarjimashunosligi ilmi andozalari darajasida emas. Bir so'z bilan aytganda, mustaqillik yillari "tarjima amaliyoti bir qadar jonlandi-yu, tarjimaning nazariy asoslari, yo'nalishlari, istiqbollari o'rganish, tadqiq etish birmuncha susaydi" (X. Do'stmuhammad). Quvonarli tomoni shundaki, oliy o'quv yurtlarida tarjima nazariyasi va amaliyotini o'qitish birmuncha jonlandi. I. G'afurov, A. Abduazizov, Q. Musayev, O. Mo'minov, N. Qambarov, Sh. Sirojiddinov kabi taniqli tarjimon va tarjimashunos olimlarimizning sa'y-harakati tufayli tarjima nazariyasi va amaliyotiga oid darslik hamda o'quv qo'llanmalari chop etildi. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, "Jahon adabiyoti", "Sharq yulduzi", "Zvezda Vostoka", "O'zbek tili va adabiyoti", "Tafakkur", "Filologiya masalalari" jurnallarida tarjima nazariyasi va amaliyotiga oid maqolalar, bahs-munozaralar bosilmoqda. Vaholanki, o'tgan "XX asr - tarjima asri" (P. F. Kaye) tarzida tarixda muhrlangan bo'lsa, XXI asrda tarjima jahon xalqlari va sivilizatsiyasi o'rtasidagi "kommunikativ vosita" (P. M. Toper) sifatida yanada ham muhim ahamiyat kasb etishi turgan gap. Bu fikr FITning so'nggi yillarda London, Moskva, Melburn va Shanxay simpoziumlarida ham olimlar tarafidan takror-takror aytilib o'tildi. Endilikda, "o'zbek adabiyoti asta-sekinlik bilan jahon adabiyoti jarayonlari bilan tutashib borayotgan" (I. G'afurov) ekan, tarjima amaliyoti va uning nazariy jihatlariga ham jiddiy e'tibor qaratmog'imiz lozim bo'ladi.

Ma'lumki, tarjima bevosita yoki bilvosita amalga oshiriladi. Hozirgi paytgacha qilingan tarjimalar, masalan, rus adabiyoti namoyondalarining asarlari bevosita, ingliz, nemis, fransuz yozuvchilarining asarlari esa bilvosita (vosita til) rus tili orqali tarjima qilindi.

Mavzuning dolzarbligi. Tarjima inson ma'naviy xayotini

boyitadi, ona tilining imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi, uni serjilo qiladi. Shuning uchun xozirgi payda lingvistikaning eng dolzarb muammolaridan biri tarjimadir.

Bitiruv malakaviy ish mavzusini tanlar ekanmiz o'z oldimizga ingliz tilidan bevosita va bivosita o'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilingan badiiy asarlarni xar tomonlama kurib chikish, taxlil kilish, zarur xollarda ma'lum bir xulosa keltirish, ularni amaliyetga tadbik kilishdagi muammolarni imkon kadar yechishni maksad kilib kuydik.

Masalaning dolzarbligi yana shundaki tarjima jarayenida bir tildagi til birliklarni ikkinchi bir tildagi teng kiymatli til birliklariga almashtirish yeki ikkinchi tildagi mukobil variantni berish zarur, aks xolda tarjima g'alaz chikishi mumkin. Albatta tarjimonlik amaliyotidan kelib chiqib shuni taa'kidlash lozimki xar bir tarjimon badiiy asar moi'yatini o'ziga xos tushunadi va shu yo'sinda tarjimani amalga oshiradi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Ko'p xollarda tarjima vositali til orqali amalga oshirilganda tushunmovschiliklar yuzaga kelganligi uchun xam tarjima nazariyasida bevosita tarjimaning ustunligini ochib berish maqsadida ushbu masalani chuqkurroq o'rganishni maqsad qilib qo'ydik.

Yuqorida keltirilgan maqsadga asoslangan holda ushbu bitiruv malakaviy ishimizning vazifalarini quyidagicha belgiladik:

1. Tarjimaning rivojlanish bosqichlari va tarixiy negizlarini o'rganib chiqish;
2. Shu davrgacha o'zbek tiliga vositali til orqali ingliz tilidan tarjima qilingan ba'zi asarlarini tarjimasini qiyosiy taxlilini olib borish (Shekspir asarlari misolida);
3. Yorqin misollar yordamida bevosita tarjimaning ustunligini ko'rsatib berish;
4. Ba'zi frazeologik birliklarning tarjimada berilishi muammosini ko'rib chiqish.

Mavzuning amaliy va nazariy ahamiyati. Tanlangan

mavzuning ilmiy xulosalardan, amaliy natijasidan, tarjima nazariyasi va amaliyeti kursini utishda, badiiy asarlar tarjimasi fanidan ukuv kullanna yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot obyektlari. Tadqiqot obyektlari qilib, ingliz, rus va o'zbek badiiy asarlari, uzbek va rus tarjimonlarining ishlari (Shekspir asarlari misolida), frazeologik birliklar olindi.

Ushbu bitiruv malakaviy ish kirish, uch bob, xulosa va takliflar xamda qo'llanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

ADABIY TARJIMA – Badiiy matnlar tarjimasi uchga bo'linadi: nasriy asarlar tarjimasi, sheri asarlar tarjimasi va dramaturgiya asarlari tarjimasi. Adabiy tarjimaga xos bo'lgan xususiyatlar: a) arxaizm, varvarizm, dislektizm, o'zlashma so'zlarning keng qo'llanilishi. Asliyatga tarjima tilidagi til birliklarining ko'pincha uslubiy jihatdan muqobil kelishi. Asliyatdagi personaj tilida qo'llanilgan dialektizmlarni aynan (so'zma-so'z) o'g'irish imkoniyati bo'lmaydi; b) asliyat tilidagi matnda ko'plab replika (luqma) lar qo'llaniladi. Ularga tarjima tilida maxsus izohlar berish zarurati bo'ladi; c) asliyat matnida tuzilgan gaplar ham murakkab tuzulishga ega bo'lib, turlicha semantik-uslubiy ahamiyat kasb etadi; d) faqat asar muallifi yashab turgan geografik muhitga oid so'zlar qo'llaniladi. Asliyat milliy bo'yoqqa ega bo'ladi; e) matnda asliyat muallifi yashagan tarixiy davr aks ettiriladi. Bunday hollarda tarjima zamonaviy o'quvchi o'qiydigan tilga yaqinlashtiriladi.

Qarang: badiiy tarjima.

Olm.: literarische Uebersetzung. Ing.: literary translation. Rus.: литературный перевод.

ADABIY TIL – Umumxalq tilining bir qismi bo'lib, shevaga xos tildan farq qiladigan, qoidalari hamma tomonidan to'g'ri deb topilgan, namunali, me'yorlashtirilgan til. Xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiladigan, me'yorlashtirilgan badiiy adabiyot, publitsistika, matbuot, radio, teatr, fan, maorif hamda davlat korxonalari tili. Olm.: Literatursprache. Ing.: literary language. Rus.: литературный язык.

ADABIYOTSHUNOSLIK TARJIMA NAZARIYASI – badiiy tarjimaning nazariy muammolari bilan shug'ullanuvchi fan bo'lib, tarjima tarixini ham o'rganadi.

Olm.: literarische Uebersetzungstheorie. Ing.: literary translation theory. Rus.: литературоведческая теория перевода.

ADAPTATSIYALI TARJIMA – (lot. adaptatio; yengillashtirish, soddalashtirish) asliyatdagi asar yoki boshqa matnning asosan ayuget chiziqlariga urg'u berib, uning ma'no va uslubiy jihatlarini e'tibordan qochirish orqali soddalashtirilgan holda amalga oshirilgan tarjima. Olm.: adaptierte Uebersetzung. Ing.: adapted translation. Rus.: адаптированный перевод.

ADEKVAT TARJIMA – (rus. Adekvatnoe lot. ozb. tenglashtirilgan, teng, tola mos keladigan, bir-biriga (tarjimaning asliyatga mos kelishi nazarda tutiladi) aynan o'xshagan tarjima. Asl nusxani toliq aks ettiruvchi, unga muvofiq va u bilan tenglashadigan tarjima adekvat tarjimadir. Olm.: adequate Uebersetzung. Ing.: adequate translation. Rus.: адекватный перевод.

ADRESSAT – (rus. отправитель почты – почтаюборувчи). Tarjimon abstrakt tasavvurga ega bo'lgan, yozma yoki og'zaki tarjima yo'naltirilgan shaxs yohud guruh (tarjima o'quvchisi, tinglovchisi). Tarjima tarjimonning o'z o'quvchilarini tanishini talab qiladi, ular jamiyatning turli kasb egalari bo'lishlari mumkin: soliqchilar, kasaba uyushma a'zolari, vrachlar, jurnalist yoki tadqiqotchilar va hokazo. Ammo shunga qaramay, tarjimonda ular haqida umumiy tasavvur bo'ladi xolos. Masalan, o'zbek yoshlari, o'zbek xotin-qizlari, talabalar ... Sinonimi: qabul qiluvchi, tarjima o'quvchisi, tarjimani taqdim qilish maqsad qilingan kitobxon. Olm.: Empfänger. Ing.: addressee. Rus.: адресат.

AKTUALLSHTIRISH – leksik birlikni muayyan kontekst talablaridan kelib chiqib nutq birligiga o'tkasish. Olm.: die Aktualisierung. Ing.: actualization. Rus.: актуализация.

ALLITERATSIYA – (lot. ad – ga, da; littera – harf soʻzidan olingan) 1. Bir xil tovush, harflarlar yoki tovush, harf birikmalarining takrorlanib kelishi; 2. Bir xil undoshlarning sheriyl qofiyada ohagdorlikni taʼminlash maqsadida takrorlanib kelishi. Olm.: die Alliteration. Ing.: alliteration. Rus.: аллитерация.

ALMASHTIRISH – asliyatdagi turli xil leksik yoki grammatik birliklarni tarjima tilidagi muqobillari bilan oʻzgartirish. Olm.: veraendern. Ing.: change. Rus.: замена.

ANAFORA – (yunon. anaphora – yuqoriga koʻtarish soʻzidan olingan). Bir soʻz yoki soʻz birikmasining nutqda takrorlanib kelishi va bu bilan muayyan kontekstdagi maʼnoni ifodalashda muhim belgi vazifasini bajarishi.

1. Asliyatda qoʻllanilgan anafera tarjimada ham aynan anafera bilan oʻgirilishi shart emas. Masalan: Inglizchada - It was the best times, it was the warst times, it was the age of wisdom, it was the age of foolishness, it was the epoch of belief, it was the epoch of incredulity, it was the season of light, it was the season of darkness ... (Charles Dickens, A Tale of Two Sites). Olmonchasi: Es war die beste und die schlimmste Zeit, ein Jahrhundert der Weisheit und des Unsinn, eine Epoche des Glaubens und des Unglaubens, eine Periode des Lichts und der Finsterniss (Charles Dickens. Die Geschichte zweier Städte). 2. Bir gapning ichida bir necha soʻzlarning keyinchalik takrorlanishida birgina soʻz bilan berilishi. Masalan: 1) taʼlim xodimlari, talabalar, texniklar, barcha majlisda qatnashdilar. 2) Shvetsariya shokoladi – buni koʻrganda doimo ishtaham ochiladi.

ANʼANAVIY TARJIMA – 1. Original asar muallifi boʻlmagan tarjimon tomonidan amalgam oshirilgan tarjima. 2. Inson (mashina emas) tomonidan bajarilgan tarjima. 3. Muayyan mamlakat yoki til tarjimachiligidagi tarjima anʼanalari.

ANIQ TARJIMA – 1. Asliyatning semantik maʼnosi aniq oʻgirilgan tarjima. 2. Asliyatga yoʻnaltirilgan tarjima. Evropa

tarjimashunosligida buni xorijiyashtirilgan tarjima ham deyiladi.

ANIQLASHTIRISH – tarjima matnidagi uslubiy talqin, asliy matn xususiyatlarini hisobga olgan holda tarjimada uslubiy vositalarni tahlil qilish va tanlash tarjimaviy aniqlashtirish deyiladi. Bu jarayonda uslubiy vositalar sezgirlik bilan va oqil ravishda tahlil qilinadi va tanlab olinadi. Bu birinchi navbatda tarjimonning uslubshunoslik qobiliyati va kasb mahoratiga bogʻliq boʻlib, asliyat matnining yangi talqini sifatida tavsiflanadi. Asliyatning tarjimaga koʻrsatadigan taʼsiri yoki lisoniy va uslubiy omillarining boshqa yaqin tillardan oʻgʻirish jarayonida yoki yosh tarjimonlar faoliyatida gipnozday quvvatga ega. Tarjima asliyatni sifatli takrorlash hamdir. Buning uchun soʻzning ayni kontekst ichidagi sifati, eskirganlik, yangilik, majoziylik, hurmatlash, ezozlash, pardalash, piching, gʻazab, haqorat va hokazo maʼnolarini bilmoq soʻngra tarjima tilidan oʻsha koʻrsatgichlarga muvofiq keladiganini topa bilmoq kerak. Buning uchun esa, tilni faqat bilishgina emas, balki tuyish, his qilish lozim.

Oʻquv – metodik topshiriqlar:

1. Tarjima jarayoni deganda nimani tushunasiz?
2. Kimlar tarjima jarayoning tarixdan rivojlanib kelishiga oʻz hissalarini qoʻshgan?
3. Jahon tarjimashunoslaridan kimlarni bilasiz?
4. Tarjima jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch kelish mumkin?
5. Tarjima jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni qanday qilib bartaraf etish mumkin.

10-mavzu: Tarjima jarayonida lug'atlar bilan ishlash.

Reja:

1. Lug'at va uning turlari
2. Tarjimada frazeologizmlarning ahamiyati
3. Tarjimada lug'atlar bilan ishlash

Frazeologik birliklar nutqda tayyor holda uchraydi, ular turg'un birikmalar bo'lib, funksional va semantik jihatdan bo'linmas yoki ajralmas birliklardir. Ingliz, o'zbek va rus tillarining so'z birliklarining tez o'sishi natijasida yangi frazeologizmlarni o'z vaqtida lug'atlardan topa olmaymiz va tarjimon ularni lug'atsiz tarjima qilishiga to'g'ri keladi. Biz eski frazeologik birliklarni "Большой английский - русский словарь" va A.V.Kuninning "Ingliz-rus tili frazeologik lug'ati" dan topa olishimiz mumkin. Tarjimon mustaqil holda frazeologiyani asosiy nazariyasi masalalarini hal qila olish, frazeologik birliklarni to'g'ri tanlay olish va ularning ifodaviy uslubiy tarjimadagi vazifalarini belgilab bera olishi kerak. Frazeologik birliklarning tarjimasining asosiy qiyinchiligi shundaki, lug'atlarning hech biri matnda frazeologik birikmalarni qo'llanishidagi rang-barangliklarni ta'minlay olmaydi. Kuninning "Ingliz-rus tillari frazeologik lug'ati" da frazeologizmlarning ko'pchiligining tarjimasi bor. Masalan: Charity begins at home. Bu har xil lug'atlarda turlicha tarjima qilingan. Myullerning "Англо-русский словарь" kitobida - "Savob o'z uyingdan boshlanadi" deb izohlangan. "Свое рубаша ближе к телу" birikmasining tarjimasi maqolning faqatgina negativ ma'nosini ko'rsatyapti, insonning tabiiy fe'latvori bo'lishi, uning qiziqishlari va hudbinligini ta'kidlayapti. Ba'zi berilgan tarjimada inson boshqa insonlar haqida o'ylashi, qayg'urish ifoda etilgan, lekin bu tarjimada kinoya yo'q va u tabiiydir. Xornbayning lug'atida shu "Charity begins at home" — A person's first duty is to help members of his own family,

deb keltirilgan. Bu misol shuni ko'rsatadiki, frazeologizmlarning lug'atlarda har xil tarjima shakllari berilishi mumkin, tarjimon buni hisobga olishi zarur. Rus, ingliz va o'zbek tillarida frazeologizmlarning so'zma- so'z to'g'ri keluvchi ko'pgina turlari bor. Masalan: to play with fire - играть с огнём — o't bilan o'ynashmoq. Frazeologizmlarni tarjima qilish chog'ida shuni yodda saqlash kerakki, har qanday tilning frazeologizmi shaxsning ichki his- hayajonini ifodalash xususiyatiga ega. Frazeologik birliklarni obrazli asosda tarjima qilayotganda, ularni ifoda qilishda aniq namunalar, qoidalar mavjudki, buning 4 xil yo'lini ko'rsatish mumkin:

1. Umumiy obrazlilikni saqlash.
2. Obrazlilikni qisman o'zgartirish.
3. Obrazlilikni umuman o'zgartirish.
4. Obrazlilikdan voz kechish.

- Fingers have light - Qo'li qing'irning dili qing'ir.
- Fingers beepers, loses meepers - Topgan niyoz, topmagan piyoz.
- Fiddle while Rome is burning - Kimga to'y. kimga aza.
- First think then speak - Oldin o'yla, keyin so'yla.

Umumiy bir tarzda aytganda, frazeologik birliklarni tarjima qilish hammavaqt ham oson emas. Frazeologik birliklarning ko'pchiligi emotsional va ekspressiv ma'no tashiydi va milliy xususiyatga ega bo'ladi.

O'quv - metodik topshiriqlar:

1. Tarjimada frazeologizmlarning ahamiyati nima bilan ifodalanadi?
2. Frazeologizmlarni necha xil usul bilan tarjima qilish mumkin?
3. Frazeologizmlarda qanday ma'no yashiringan?
4. Tarjima jarayonida qaysi turdagi lug'atlardan foydalanish mumkin?

11-mavzu: Badiiy tarjima va uning xususiyatlari.

Reja:

1. Badiiy tarjimaning boshqa tarjima turlaridan ajratib turuvchi xususiyatlari
2. So'z ustalarining badiiy tarjimadan foydalanish mahorati
3. Badiiy tarjimada me'yor va uslub

Tarjimada muqobil ekvivalent topish "Kundalik aloqa vositasi bo'lgan tilga nisbatan badiiy adabiyot tili" – deb yozadi Fyodorov,- bu so'z ustalari tomonidan qayta ishlangan tildir. Badiiy asarni tarjima qilish uchun tilning lug'at boyligi, chunonchi sinonim va omonimlar, kasb-hunar atamalari, shevaga xos, eskirgan va vulgar so'zlar, erkalash va kichraytirish, qochiriq, maqol, matal va iboralarni hamda so'zlarning musiqiyli-gi-yu, ohangdorligini, ko'p ma'noliligini, tilning talaffuz me'yorlarini, mubolag'a va kichraytirish xususiyatlari, hazil mutoyiba shakllarini bilish zarur. Badiiy tarjimoni ilmiy tavsiflash shundan iboratki, bunda so'zni so'z bilan emas, balki ma'noni ma'no bilan, obrazni obraz bilan, yumorni-yumor bilan berish muhim ahamiyatga egadir. Badiiy tarjimaning boshqa turdagi tarjimalardan farqi shundaki, so'z, jumla yoki butun bir asarni to'g'ri o'girish kifoya emas. Bunda tarjimon ham san'atkor bo'lishi lozim. Me'yor tushunchasiga kelsak, ingliz va o'zbek adabiy tili va badiiy asarlarida me'yoriy ko'rinishlar, nutq jarayonida me'yorning buzilishi va ularni tuzatish yo'llari, ingliz va o'zbek tillarining hozirgi me'yoriy holati tilning madaniylik mezonini ekanligidir. Me'yor - jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan va ularga tushunarli bo'lgan til birliklarining nutq jarayonida qo'llanish holati va imkoniyatidir. Biz ushbu maqolada buyuk amerika adibi E. Hemingueyning "Alvido qurol" asari tarjimasida hamda boshqa bir ikki badiiy matnlar tarjimasida til me'yoriga amal qilinganlik yoki qilinmaganlik masalasi yuzasidan fikr yuritamiz. Amerika

adibi E. Hemingueyning "Alvido qurol" asari tarjimasida fikr yuritish ekanmiz misollarda ruscha variantlarni ham berib o'tishlikni ma'qul deb topdik, zero ushbu asar bilvosita, ya'ni rus tili orqali o'zbek tiliga tarjima qilingan. Ma'lumki har qanday asardagi personajlarning tili, nutq madaniyati asar qahramonlarining obrazini, xarakterini o'zida aks ettiradi. Turli nutq vaziyatlarida gapirayotgan personajlarning tili faqat shu personajga xosligi bilan xarakterlanadi. Bunday o'ziga xoslik uning gapirish ohangida, hatti-harakatlarida, qiliqlarida ham aks etadi. Bu hatti-harakatlar muallif bayonida, personajlarning gaplarida leksik frazeologik birliklar orqali, ma'lum bir stilistik funksiyalarni olmasdan, ularni asliyatdagi birliklar ta'siriga berilib, g'ayritabiiy sharoitlarda qo'llash, tarjima tili madaniyati hazm qila olmaydigan birliklar hosil bo'lib qolishiga, ba'zan esa ma'no va funksiyaning mutlaqo o'zgacha talqiniga olib kelishi mumkin. Tarjima jarayonida ikki til birliklarining tarjimaviy, lug'aviy uyg'unligi emas, balki matndagi funksional, kommunikativ mosligi muhimdir. Agar bu funktsionallik va kommunikativlikka e'tibor berilmay tarjimon tomonidan asliyatdagi birlikning lug'aviy ma'nosi berilsa, tarjima tilida so'z ifodalagan stilistik va kommunikativ ma'no buziladi. Jumla o'zbek tili adabiy til normalariga mos kelmay g'aliz va to'ntoq, fikr yakunlanmaganday jaranglaydi. Asliyatdagi so'z va iboralarni umumxalq adabiy tilida qabul qilinmagan so'zlar bilan o'girish tarjima tilini kambag'allashtirishga, badiiy ifodadorlik darajasiga salbiy ta'sir qiladi. Quyidagi jumlar tarjimasiga e'tibor beraylik: ...the two leather cartridge-boxes on the front of the belts, grey leather boxes heavy with the packs of clips of thin, long 6,5 mm cartridge, bulged forward under the capes so that the men, passing on the road, marched as though they were six months gone with child. ...две кожаные патронные сумки на поясе, серые кожаные сумки, тяжелые от обоем тонкими 6,5 миллиметровыми патронами, торчали с переди под плащами так, что казалось, будто солдаты

идушие по дороге, беременны на шестой месяц. (с. 9-10).

...qayishlaridagi ikkita kulrang charm patron sumka 6,5 millimetrli ingichka patronlar joylashgan oboymalardan zil tortib yomg'irpo'sh tagidan ko'tarilib turar va go'yo yo'ldan borayotgan soldatlarni olti oylik homilador qilib ko'rsatardi. Bu jumladagi «пояс» so'zi «qayish» so'zi bilan o'girilishiga e'tibor beraylik. O'zbekcha «qayish» so'zi shevada «kamar» ma'nosini anglatadi, u shuningdek ko'proq «mahkam, mustahkam, egiluvchan» ma'nolariga ham ega. Belga taqib yurish ma'nosida esa u «kamar» so'zi bilan ifodalanadi va bu adabiy til normasi sifatida qabul qilingan. Chunki kontekst anglatgan ma'no bu bilan yanada ifodaliroq jaranglaydi. Quyidagi jumlada ishlatilgan birinchi jahon urishi davriga xos "troops" so'zi o'zbek tiliga qilingan tarjimasida ham o'rta asr ruhini saqlab qolgan, zero hozirgi ingliz tilida ushbu so'zning zamonaviy shakli bo'lmish "army" so'zi mavjud, o'zbek tilida ham rus tili orqali kirib kelgan "armiya" so'zi ishlatilmasdan o'sha davr ruhini saqlovchi "qo'shin" so'zi tildagi davriy me'yorni saqlagan. Shuningdek bu jumla tarjimasida inglizcha "the house", ruscha «домик», o'zbekcha «kulba» so'zlarining funksional mosligiga e'tibor beraylik. O'zbeklar naridan beri qurilgan g'aribona boshpanani "kulba" deyishadi. Aslyatda ham, rus tilida ham gap "kichik uycha" holiday uchrayaptiki, tarjimon uni "kulba"ga aylantirib, muallif niyatiga putur yetkazgan. Qolaversa askarlar oyog'idan kuchli shamol oqibatida ko'tariladigan "to'zon" emas, oddiy chang-g'ubor ko'tarilayotgani va ular daraxtlarning barglariga o'tirib qolayotganligi haqida gap ketyapti: "Troops went by the house and down the road and the dust they raised powdered the leaves of the trees".(p.3) «По дороге мимо домика прошли войска, и пыл, которую они поднимали, сядились на листья деревьев» (с.9). «Kulba oldidagi yo'ldan qo'shinlar o'tib borar, ularning oyog'idan ko'tarilgan to'zon og'ochlarning barglariga o'tirardi» (91 b.). Ayrim hollarda aslyatdagi birikmani sof lug'aviy ma'noda o'girilishi ham jumla ifodadorligini buzib

qo'yadi: "The priest was young and blushed easily and wore a uniform like the rest of us but with a cross in dark red velvet above the left breast pocket of his grey tunic"(p. 8) «Священник был молод и легко краснел и носил такую же форму, как все мы, только с крестом из темно-красного бархата левым нагрудным карманом серого френча» (с. 11) «Kashish yosh edi va sal narsaga darrov qizarib ketardi, u hammamiz qatori forma kiygan, faqat kulrang frenchining so'l ko'krak cho'ntagi ustida to'q qizil duxobadan salb qadalgan edi» (94 b.) Bu jumlaning o'qigan ko'pchilik kitobxonlar ruxoniylar ko'kraklariga soch taqib yurishlari haqidagi fikrni uqib olmasliklari tayin. Qolaversa «священник» so'zini «kashish» emas, bundan oldingi matndagidek «ruhoni» so'zi bilan o'giraverish, forma so'zini «harbiy kiyim» deb konkretlashtirish maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunki «ruxoni» so'zi «kashish» so'ziga nisbatan ancha tushunarli va keng ommalashgan. Ba'zan hech qanday ekvivalent tanlashga muhtoj bo'lmagan, hamda tarjima qilinganda ham lug'aviy leksik muqobillari orqali o'girish mumkin va lozim bo'lgan birliklarni har xil tasodifiy birliklar vositasi orqali nutqning madaniy va tabiiy ohangini yo'qqa chiqarish hollari ham uchray turadi. Tarjimada funksional mos muqobil bo'lsada, keng xalq ommasiga tushunarli bo'lmagan so'zni ishlatish hollari ham kuzatiladi: "Miss Barkley was quite tall" (p.13). «Мисс Беркли была довольно высокого роста» (с. 19). «Miss Berkli sanamrastadek qiz edi» (105 b.) O'zbek adabiy tilida «ancha barvasta qomatli» yoki «novchadan kelgan» iboralari mavjud bo'lgani va u aslyatdagio "quite tall" iborasiga juda mos bo'lgani holda tarjimon negadir ko'pchilikka notanish bo'lgan «sanamrasta» so'zini ishlatgani kitobxonga bir oz tushunarsizlik olib keladigandek. Bunday holatni quyidagi jumla tarjimasida ham ko'rishimiz mumkin: "We sat down on a bench and I looked at her" (p. 14). «Мы сели на скамейку, и я посмотрел на нее» (с. 16). «Biz eshakka o'tirdik va men unga qaradim» (105 b.).

Bu o'rinda asliyatdagi "a bench" so'zi ruscha «скамейка» hech qanday stilistik vazifa bajarmayapti. Uni tarjimon oddiygina qilib «o'rindiq», «o'tirgich» so'zlari bilan o'g'irganda xalq jonli tilida ishlatiladigan «eshak» so'zini ishlatmaganda ham bo'lardi. Chunki o'zbek og'zaki tilida "o'rindiq" (a bench) so'zining ko'chma ma'noda ishlatilgan "eshak" tarzida ishlatilish shakli ham mavjud, lekin "a bench" so'zining ingliz tilida ko'chma ma'noli so'z bilan ifodalanganini biz ko'rmayapmiz. Balki voqealar shahardan chetta sodir bo'lganligi va balki tarjimon qahramonlarning oddiy qishloqdan chiqqanligiga e'tiborni qaratmoqchidir. Quyidagi parchada katta kishiga nisbatan "baby" so'zining ishlatilishiga e'tiborni qaratsak. Bizga ma'lumki ingliz tilida baby so'zi kichik bola, shaqaloqqa nisbatan ishlatiladi. Ko'chma ma'noda esa muloyimlik va iltifotlilikni ifodalaydi. Asarda esa muallif yarador, najotsiz bemorga nisbatan muloyim munosabatda bo'lish kerakligiga e'tibor qaratmoqda. Ya'ni o'sha bemorlar xuddi bolalardek g'amxo'rlikka juda muhtojligini, g'amxo'rtalab ekanligini kitobxon ongiga yetkazmoqchidek go'yo. Shunki bilamizki kasalxonaga tushgan har qanday bemor najot bilan shifokorlarga ko'z tikadi, ertaroq sog'ayib ketishlaridan umidvor bo'ladilar. Bolalar yaxshi muomalaning shaydosi bo'lganidek, bemorlar ham shifokor va hamshiralarning xushmuomalaligiga juda muhtoj bo'ladilar. Afsuski ushbu holat tarjimada saqlanmagan. Baby so'zini tarjima qilmasdan transliteratsiya usuli bilan "bebi" shaklida ifodalagan xolos. Bu esa kitobxonda tushunmovchilik uyg'otadi: ... poor dear baby, how do you feel? (p.78). Sho'rlik bebi, kayfiyatingiz durustmi o'zi. (148 c.) Ushbu asardagi Italiyalik kapitanning ingliz tilini buzib gapirishi va bu nutqning rus va o'zbek tillariga xorijiy kishi nutqiga xos nuqsonlar bilan o'girilishi ham pragmatik uyg'unlikni vujudga keltirgan: Priest no with a girl. Priest never with a girl. Священник с девочка нет. Священник с девочка никогда - Рухоний ойимчага йўқ. Рухоний ойимча билан ҳеч қачон. Adabiy til me'yorini buzib

so'zlashuvchilarning hammasini ham mahalliy lahchalarda gapiradi deb bo'lmaydi. Ayrim shaxslar nutqida muayyan mahalliy lahjaga moyillik sezilmasada, ular o'z nutqi lug'at tarkibida nafaol ayrim so'zlarni buzib talaffuz etadilar. Bu ko'proq fikr doirasi endi kengayib, nutqi rivojlanib kelayotgan yosh bolalar, hayotlarida bu xil so'zlardan kam foydalangan yoki mazkur so'zlarning tili lug'at tarkibiga keyinroq kirib kelganligi tufayli ularni yaxshi o'zlashtirib ololmagan qariyalar, savodsiz yoki chalasavod shaxslar nutqida tez-tez uchrab turadi. Binobarin, badiiy asar qahramonlari nutqida ham bu xil noadabiy unsurlarning uchrab turishi tabiiy hol bo'lib, yozuvchilar ularni o'z qahramonlari nutqiga kiritish yo'li bilan kitobxonlar e'tiborini bayon etilayotgan fikrning mazmunidan ko'ra ko'proq usuliga, shakliga tortadi va shu yo'l bilan o'z qahramonlarini atroficha tasvirlaydiki, tarjimada ularning muvofiq lisoniy vositalar yordamida talqin etilishi so'zsis pragmatic uyg'unlikni yuzaga keltiradi. Asarni o'qir ekanmiz minglab bunday misollarni keltirishimiz mumkin, zero asar shunchalik san'tkorona tarzda yozilganki go'yo uning har bir so'zi bir ta'sirchanlikka egadek. Shu o'rinda yana bir narsani aytmoq'imiz lozimki, bundayin jahon durdonasini o'zbek kitobxonlariga yetkazib berayotgan mohir tarjimonlarimizga ham tasanno aytmaslikning iloji yo'q albat. Xulosa qilib aytganda, badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari va me'yordan chetdan chiqmaslik hamda ma'noning asliymonand talqin etilishi ko'p jihatdan uning tarkibidagi obrazli hamda his-hayajon ifodasi uchun qo'llanilgan lisoniy vositalarning ijodiy talqin etilishiga bog'liqdir. Bunday tarjima tarjimondan ko'pincha asliyat tili vositalarini moddiy jihatdan aniq aks ettirishni emas, balki mazkur vositalar yordamida ifoda etilgan uslubiy vazifalarni, his-hayajon ohangini ona tili birliklari vositasida qayta yaratishni talab qiladi. Til birliklarining adabiy shaklda me'yorlashuvida badiiy adabiyot va badiiy tarjimaning o'zni ham alohida ekan.

Badiiy ijod jarayonida shoir va yozuvchilar o'z fikr va hissiyotlarini boshqa ijodkorlardan farq qiladigan, favqulodda asl ifodalarda berishga intiladilar. Bu yo'lda ular yangi so'z va iboralar yaratadilar. Yaratilgan birliklar o'sha matnning o'zida qolib ketaverishi, ommalashmasligi, adabiy tildan o'rin olmasligi, bir so'z bilan aytganda, tilda me'yorlashmasligi mumkin. Ularning me'yorlashishini sharoit, vaqt va ommaning qabul qilishi kabi omillar belgilaydi. Ammo bir narsa ravshanki, bu birliklar o'zi qo'llangan matnda badiiyat uchun, obrazli tasvir va ifoda uchun xizmat qiladi.

Shunday ekan ularni bir uslub doirasida me'yoriy deb hisoblashga asosimiz bo'ladi. Bayon qilingan fikrlarni xulosalab aytish mumkinki, nutq madaniyati adabiy til normalari sifatida qaraladigan barcha holatlardan san'atkorona va o'rinli foydalanishni talab qilar ekan, uning ajralmas qismi hisoblanadigan madaniyati ham barcha leksik-stilistik vositalarning asliyatdagi darajada tabiiy va jozibador jaranglashini taqozo qiladi.

O'quv – metodik topshiriqlar:

1. Badiiy tarjima nima?
2. Badiiy tarjimaning boshqa tarjima turlaridan ajratib turuvchi xususiyatlari qaysilar?
3. Fyodorov bu borada nima degan edi?
4. Badiiy tarjima qanchalik muhim?
5. O'zingiz yoqtirib o'qiydigan chet el adabiyotiga doir birorta badiiy asar oling va uni ingliz yoki rus tiliga badiiy tarjima me'yorlariga ko'ra tarjima qilib ko'ring.

12-mavzu: Ketma ket tarjima va uning xususiyatlari.

Reja:

1. Ketma-ket tarjimada tarjimonning ishlash prinsipi
2. Ketma-ket tarjimaning boshqa tarjima turlaridan farqi
3. Ketma-ket tarjimada asl nusxa matnning o'zgarishi

Og'zaki ketma — ket tarjima qilish vazifasi, boshqa har qanday tarjima faoliyati kabi, aslida mavjud bo'lgan xabarni etkazishdir. (Shuni esda tutish kerakki, bu xabar so'zlashuv muallifi tomonidan qabul qiluvchiga yetkazish uchun mo'ljallangan ma'lumotdir). Ketma-ket tarjimada yozma tarjimadan farqli o'laroq, xabar faqat nutq asarining mazmunidan ajralib turishi mumkin; matnning shakli aloqa bilan bog'liq axborotni olib bormaydi, badiiy matn shakli xabarning bir qismini olib yurishi mumkin. Bu holat juda muhimdir: og'zaki tarjimada dastlabki xabarning shakli yozma ravishda kamroq rol o'ynaganligi sababli, xabar boshqa shaklda o'tkazilishi mumkin, ya'ni tarjima shakli asl nusxadan katta farq qilishi mumkin. Og'zaki aloqa tarkibida quyidagi bosqichlar (bosqichlar, ulanishlar) aniqlanishi mumkin):

1. Xabar matnining manbai;
2. Asl xabar tarjimonini qabul qilish va tushunish (dekodlash);
3. Qabul qilingan xabarni ro'yxatga olish tizimida kodlash-saqlash qurilmasi;
4. Chiqish xabarini ro'yxatdan o'tkazish (kodlash);
5. Qabul qiluvchi tomonidan tarjimani qabul qilish.

Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bu erda eng muhim narsa-tarjimonning dastlabki xabarni qabul qilish bosqichi va tarjimonning tarjima matnini ishlab chiqarish bosqichi. Shuni ta'kidlash kerakki, dastlabki xabarni qabul qilish bosqichida tarjimon faoliyatining muvaffaqiyati asosan asl xabarning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Shuning

